

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARIX FAKULTETI**

**MILLIY G‘OYA, MA‘NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA‘LIMI  
KAFEDRASI**

**QAHHOROV JAMOLNING**

“5141500 – Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi”  
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun

**“Islom Karimov asarlarida ma'naviy barkamol  
insonni tarbiyalash g'oyasi ” mavzusidagi**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar:

o‘qituvchi N.O‘roqova.

“Himoyaga tavsiya etildi”  
Tarix fakulteti dekani  
\_\_\_\_\_ dots. B.Saidov.  
\_\_\_\_\_ 2012 yil

Qarshi-2011

# MUNDARIJA

Kirish

**I. Bob.** Ma'naviy barkamol inson tushunchasi, uning mohiyati.

**1.1.** Inson, shaxs, fuqaro tushunchalari va ularning ma'naviy jihatlari.

**1.2.** Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash zarurati.

**II. Bob.** Ma'naviy barkamollikning mezonlari.

**2.1.** Komil inson va uning sharqona fazilatlari.

**2.2.** Inson kamolatining namoyon bo'lish shakllari.

Xulosa

Adabiyotlar ro'yxati

Ilova.

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi:** O`zbekiston mustaqilligi sharoitida o`zligini anglayotgan xalqimizning ijtimoiy siyosiy va ma'naviy ongini yuksaltirish, millatimizning uzoq tarix davomida shakllanib kelgan umuminsoniy qadriyatlarni tiklash istiqloq mafkurasini rivojlantirish va madaniy taraqqiyotimizning o`ziga xos xususiyatlarini ochish hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatimizni yanada yuksaltirish bevosita kishilardan yuksak darajadagi ma'naviyatni talab etadi. Ma'naviy taraqqiyotsiz jamiyat rivojlanishining yuksak darajada borishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki ular o`zaro dealektik bog`lanishda taraqqiy qiladi. Ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan kishilargina istiqloq, mustaqillik uning muhitini chuqur anglay oladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, biz uchun umummilliy umumdavlat miqyosdagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sanaladi. Bu ezgu maqsad yo`lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchil va qat'iyatlik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi.

Haqiqatdan ham mustaqillikning dastlabki kunidanoq bu masalaga uzluksiz e'tibor berib kelinmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning har bir nutqi va ma'ruzasi maqola va asarlarida yuksak ma'naviyat kelajak poydevori ekanligi qayta-qayta ta'kidlanmoqda. “Zero, deb o`qtiradi Islom Karimov-Biz jamiyatimiz taraqqiyotini faqatgina iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik bilan emas, xalqimizning ma'naviy barkamolligi, demokratlash va insonparvarlik tamoyillarining kishilar ongida nechog`lik chuqur ildiz otishi bilan baholaymiz<sup>1</sup>.

Inson ma'naviyatini yuksaltirmasdan turib, xalqimiz hayotida turmushi yuksalishida hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin.

Islohlarning birinchi bosqichida milliy ma'naviyatni yuksaltirish yo`lidagi ko`zlangan maqsad to`la amalga oshirildi.

Ma'naviy, g`oyaviy-mafkuraviy parakondalik davriga barham berildi. Ijtimoiy hodisalar bilan birga milliy ma'naviyatimiz yuksala bordi.

Mamlakatimiz rahbariyati ma'naviyatning qudratli va yengilmas kuch ekanini to`g`ri anglab, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni mustaqil fikrga ega bo`lgan barkamol inson etib tarbiyalash ishiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Zotan, mustaqil mamlakatimiz kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Shuning uchun ham yurtboshimiz “Yuksak ma'naviyat – kelajak poydevori”, “Yuksak

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. T. Ma'naviyat. 2008 y. 18 bet.

ma'naviyat – yengilmas kuch” kabi shiorlarni yanada balandroq ko'tardiki, yuksak ma'naviyat mustaqillikni asrab avaylash, mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirish uchun muhim va zaruriy tamoyillardan biri bo'lib qoldi.

Ma'naviyatli e'tiqodli kishilar o'z maslagi, vatani uchun jonini fido qilishga har doim, har daqiqa tayyor bo'ladi. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida ma'anviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni eng dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'ymoqda.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari:** Prezident Islom Karimov asarlarida o'z aksini topgan ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash g'oyalari va qarashlarini har tomonlama tahlil etishdan iborat. Chunki bugungi kunning asosiy dolzarb masalalardan biri yoshlarni ma'naviy barkamol insonlar qilib tarbiyalash va ularni ongida ona vatanga muhabbat his-tuyg'usini uyg'otishdan iborat.

**Mavzuni yangiligi:** Shundan iboratki, hozirgacha tarixchi olimlarimiz, faylasuflar tomonidan I.A.Karimov asarlari har tomonlama o'rganilib kelinmoqda. Biz o'z ishimizda prezident asarlarida taklif etilayotgan ma'naviy barkamol insonlarni tarbiyalash g'oyalarini o'rganishga katta ahamiyat berdik.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va metodologik asoslari:** Respublikamiz Prezidenti I.Karimov asarlari, mavzuga oid ilmiy - nazariy adabiyotlar.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati** shundan iboratki, undan umumta'lim maktablarida, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida yosh avlodni tarbiyalash jarayonida metodik ko'rsatma sifatida foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi:** Kirish, 2 bob, 4 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I bob. Ma'naviy barkamol inson tushunchasi, uning mohiyati.**

### **1.1. Inson, shaxs, fuqaro tushunchalari va ularning ma'naviy jihatlari.**

Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir. Buni chuqur anglagan I. A. Karimov O'zbekiston Prezidenti etib saylangan birinchi kunlardanoq ma'naviyat va uni yuksaltirish masalasini davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylantira oldi.

Ma'naviyat sohasidagi vazifalar doimo dolzarb va boshqa jarayonlarga ta'sir ko'rsatishini nazarda tutib, "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarini keng jamoatchilikka taqdim etar ekan, muallif quyidagicha izoh beradi: "Ushbu kitob insonning yuksalishida ma'naviyat olamining qanday ta'sir va ahamiyatga ega ekani, shuningdek, ma'naviyatga qarshi qaratilgan xurujlarning real xavfi haqida atroflicha fikr yuritish, xalqimiz yangi hayot, yangi jamiyat asoslarini qurayotgan hozirgi murakkab va tahlikali zamonda odamlarni bunday xatarlardan ogoh etish, el- yurtimiz, keng jamoatchilik e'tiborini bu masalalarga yana bir bor qaratish, kelajak avlodimizni ma'naviy sog'lom va barkamol etib tarbiyalash bilan bog'liq vazifalarni aniq belgilab olish borasidagi hayotiy ehtiyoj mahsuli sifatida dunyoga keldi"<sup>1</sup>.

Prezidentimiz I.A. Karimovning mazkur kitobida odamzot uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo'lib kelgan ma'naviyatning ma'no- mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, bu serqirra tushunchaning nazariy va amaliy tomonlari har tomonlama keng qamrovli fikr va xulosalar orqali tahlil etilgan.

Aslida ma'naviyat - insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng baquvvat ma'naviy- ruhiy omil hisoblanadi. Inson – tabiatning, barcha mavjudotning gultoji deyilganda uning ushbu xislati, ya'ni yuksak ma'naviyat egasi bo'la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzotlarda ko'rmaymiz.

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta'minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz maxluqotlarga xos. Ma'naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo'lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma'naviyat odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir.

Ma'naviyat juda keng qamrovli tushuncha bo'lganligi uchun ham, yuqorida tkidlaganimizdek uni bir jumlada ifodalash nihoyatda mushkul.

Ma'naviyat ko'proq inson qalibiga, botiniy dunyosiga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu ma'noda ma'naviyat inson qalibidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu ilohiy nur hech bir jonzotda

---

<sup>1</sup>I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat, 2008, 16-17- b.

yo'q. Ma'naviyat shunday sehrli tilsimki, uni tugal echishga bashar qudrati etmaydi. Shunday ekan, "ma'naviyat" tushunchasiga bir yo'la mukammal ta'rif berish murakkab hisoblanadi.

Unga ta'rif berishda Prezidentimiz Islom Karimovning nazariy qarashlariga, milliy qadriyatlarimizni, tarixiy va madaniy – ma'naviy merosimizni tiklash borasidagi amaliy faoliyatlariga tayanishimiz, uni o'zimiz uchun dasturulamal qilib olishimiz maqsadga muvofiq. Yurtboshimiz "Yuksak ma'naviyat- engilmas kuch" asarida insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog'langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat millat va xalq hayotida hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan o'rin tutishini uqdirib: "Ma'naviyat- insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon- e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir"<sup>1</sup> deb ta'riflagan edilar. Bu tarifda inson faoliyatining barcha ma'naviy qirralari qamrab olingan bo'lib, biz bundan buyun ma'naviyat haqida so'z yuritganimizda unga metodologik asos sifatida tayanamiz.

Shunday qilib, ma'naviyat- insonning ruhiyatini, uning o'z- o'zini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql- zakovatini, yuksak maqsad va g'oyalarni qo'ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir, - deb ta'rif berish o'rinli deb hisoblaymiz. Albatta, bu ta'rifni eng oxirgi, qiyomiga yetgan, mukammal deb aytishimiz mumkin emas.

I.A. Karimov aytganidek, ma'naviyat- taqdirning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak.<sup>2</sup>

Ma'naviy barkamol, komil inson tushunchalarini bilib olishdan avval inson, shaxs, fuqaro tushunchalarining mazmun- mohiyatini anglab olish lozim bo'ladi.

Inson nihoyatda murakkab, ko'p qirrali va ko'p o'lchamli mavjudot bo'lib, uning mohiyatini anglash yuzasidan turli qarashlar ilgari surib kelinmoqda. Sharq falsafasi tarixida ham inson bosh mavzulardan biri bo'lib kelgan.

Masalan, Farobiy falsafasida inson butun borliq taraqqiyotining mahsuli sifatida izohlanadi. Mutafakkir insonning barcha olijanob fazilatlari ilm tufayli ekanligini, inson hayotining mazmuni- baxtli bo'lish va baxtli qilishga intilish, bunga esa faqat ilm va ma'rifat orqali erishish mumkinligini ko'rsatdi. Beruniy va Ibn Sino insonning boshqa mavjudotlardan ustunligi aql va tafakkur tufayli ekanligini isbotlashga harakat qildilar.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat, 2008, 19- b

<sup>2</sup> I.A. Karimov. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent. O'zbekiston, 1993, 74- bet.

Hayot go'zaldir,- deydilar shoir va mutafakkirlar, lekin hayot inson bilan go'zaldir. Inson go'zalligini belgilovchi asosiy mezon uning ma'naviyligi, yani axloq va odobi hisoblanadi. O'zbek xalqining "Inson odobi bilan go'zal" degan maqolining mohiyatida chuqur falsafiy ma'no yotadi.

Konfutsiy insonni o'z mohiyatini ma'naviy- axloqiy fazilatlari va kamoloti orqali namoyon etadigan jonzot sifatida talqin etadi. Uning fikricha, insonning insonligi o'zidagi har qanday tabiiy ehtiyoj, his va tuyg'uni ma'naviylikka bo'ysundira olishidir. Faqat insondagi ma'naviy mas'ullik ularga nima qilish keragi, nima qilish kerakmasligini o'rgatadi. Shu jihatdan qaraganda insondagi ma'naviylik inson va insonlar faoliyatiga maqsad, yo'nalish va mazmun beradigan omildir<sup>1</sup>.

G'arb ilmida esa insonga, asosan biologik mavjudot, tabiatdagi evolyutsion o'zgarishlarning mahsuli deb qaraldi.

Inson tushunchasiga aniq ta'rif berish uchun uni boshqa biologik mavjudotlardan ajratib turuvchi eng muhim xususiyatlarni aniqlash zarur. Bular qatoriga quyidagilar kiradi. Inson eng avvalo boshqa mavjudotlardan o'zining xotirasi, tafakkuri, tili borligi bilan ajralib turadi. Boshqa mavjudotlardan insonning tub sifatiiy farqini ifodalovchi xususiyatlardan yana biri uning o'z amaliy faoliyatini tartibga sola bilishidir. Shuningdek inson o'z turmushi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish, yaratish malakasiga ega ekanligi ham ana shunday xususiyatlardan biri hisoblanadi. Inson hayotida mehnat asosiy rol o'ynaydi. Mehnat tufayli inson o'zi yashayotgan tabiatga ta'sir etadi, uni o'zgartiradi, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratadi. Amerikalik olim B. Franklin "Inson mehnat qurollarini yaratuvchi jonzotdir", deb ta'riflagan.

Oilaviy munosabatlar va ma'naviy ahloqiy me'yorlar insonni hayvondan ajratib turuvchi eng muhim xususiyat sanaladi.

Prezident I.Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida yosh avlod tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan **uch tabarruk makonga** alohida e'tibor qaratadi: ularning birinchisi –**oila**, ikkinchisi – **mahalla**, uchinchisi – **ta'lim-tarbiya tizimi**. Agar shu uch makonda ma'naviy muhit ko'ngildagidek bo'lsa, hamma ish ko'ngildagidek bo'ladi, agar ular tanazzulga qarab ketsa, butun jamiyat halokatga yuz tutadi. Afsuski, muayyan sabablarga ko'ra bugungi kunda har uch makonda ham muammolar ancha-muncha yig'ilib qolgan. Kitobda oila ma'naviy muhitiga alohida e'tibor ajratilgan. Ba'zi ota-onalarning o'sib kelayotgan yosh farzandlarining qiziqish va intilishlariga, ularning "ongu tafakkurida har kuni bir o'zgarish yuz berib, ko'zida yangi-yangi savollar paydo bo'layotganiga" jiddiy ahamiyat bermasligi, boz ustiga ba'zi ota-onalar bola oldida o'zini tutishni bilmay, axloq-odob bobida farzandlariga o'rnak bo'lish o'rniga ahli oilasiga qo'pol muomala bilan farzandlari ruhiga salbiy ta'sir ko'rsatishi,

hatto ba'zi oilalarda bolaning ma'naviy olamida og'ir asoratlar qoldirishi mumkin bo'lgan o'zgaralar baxtini ko'rolmaslik, fisqu fasod, ig'vo muhiti ham mavjudligi taassuf bilan qayd etiladi va shunday xulosa qilinadi: "Biz o'z farzandlarimizning baxtu saodatini, iqbol va kamolini ko'rishni istar ekanmiz, nafaqat oiladagi, balki mahalla-kuydagi odamlarning xatti-harakati ham bolaning shakllanib kelayotgan sof qalbi va ongiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida doimo o'ylashimiz, bu masalada zimmamizda qanday ulkan mas'uliyat borligini unutmasligimiz zarur." Muallif har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimni yaxshilash haqida bosh qotirar ekan, yana badiiy so'z qudratiga murojaat qilishni maslahat beradi. Mumtoz adibimiz Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar"ida tasvirlangan o'zbek oilalariga xos odob va axloq namunalarini ibrat qilib ko'rsatadi. O'zbek xalqining azaliy bolajonligi, oilaparvarligini iftixor bilan ta'kidlar ekan, muallif bunday ezgu tuyg'ular farzandlarni "yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish" yo'lida sarflanishi lozimligini alohida uqtiradi.

Ta'lim-tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi, davlat va jamiyat nazoratidagi umummilliy masaladir. Ta'lim va tarbiya bir-biridan ajratib bo'lmaydigan uyg'unlikda olib borilishi lozim. Ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifasi komil inson tarbiyasidir. Yosh avlod ma'naviyatini shakllantiradigan asosiy mezonlar, yoki ma'naviy hayot mezonlari deganda nimani tushunish kerakligi haqida Prezidentimizning yangi kitobida aniq ko'rsatmalar berilgan. Biz yoshlarning ma'naviy tarbiyasida nimalarga tayanishimiz kerak, yoshlarga kimlarni ibrat qilib ko'rsatishimiz durust bo'ladi, qaysi o'lchov, qanday meyorlarni asos qilib olishimiz lozim – bular hammasi kitobda aniq ko'rsatib, nomma-nom sanab berilgan. Bular – ulug' ajdodlarimiz yaratgan ulkan va qutlug' ma'naviy (ilmiy, badiiy, falsafiy) meros, ularning ibratli hayotlari, muqaddas dinimiz, qadriyatlarimizda ifodalangan *buyuk va boqiy haqiqatlar, yuksak tuyg'ular*.

Ammo yaqin o'tmishda bizda bolaga tabiiy va aniq fanlar bo'yicha bilim berish asosiy maqsadga aylanib, bolaning ma'naviy tarbiyasi o'z holiga tashlab qo'yilgan, ko'pincha faqat siyosiy-tashkiliy tadbirbozlikka aylanib ketgan edi. Davlatimiz va hukumatimizning "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturi" va boshqa ta'lim jarayoni mazmunini tubdan takomillashtirishga xizmat qiluvchi islohotlari tufayli bu sohaga yangicha e'tibor qaratildi. Bu say-harakatlarning samaralari borgan sari yorqinroq ko'zga tashlanib borayotganini mamnuniyat bilan e'tirof etgan holda, hanuz bu yo'lda qiladigan ishlar, hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar birtalay ekanligiga ham kitobda alohida ahamiyat berilgan.

Inson o'z aqli tufayli u butun koinot, tabiat, taraqqiyotida buyuk yaratuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi, o'z tarixini yaratadi, uni avaylab asraydi. Inson faoliyati va tajribalari

jamiyatning takomillashuvi va kishilarning har tomonlama kamol topishi uchun manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Tabiat va jamiyatdagi o'rni, ahamiyati, yaratuvchanlik mohiyati, oliy mavjudot ekani, vorislikning davomiyligini ta'minlashni, barcha ijobiy hamda foydali yutuqlarni saflashi, targ'ib etish kabi xususiyati tufayli inson muqaddas va tabarruk qadriyat hisoblanadi.

Bugungi kunda faylasuflar inson uchta buyuk qudrat- tana, ruhiyat va ma'naviyating yig'indisi ekanligini ta'kidlamog'dalar. Insonning biologik xususiyat- lariga, himoyalanih, zurriyot qoldirish, sharoitga moslashish kirsa, uning ijtimoiy xususiyatlariga til, muomila, bilim, ong, maxsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, boshqarish, o'zini-o'zi idora etish, ahloq, nutq, tafakkur, qadriyatlar bilan ish ko'rish va boshqalar kiradi. Psixik xususiyatlarini ruhiy kechinmalar, xayratlanish, ham- tashvish, iztirob chekish, zavqlanish, kafiyat kabilar tashkil etadi.

Inson o'z hayoti davomida tana va ruh extiyojlarini qondirishga intiladi. Tana extiyojlarini qondirish inson yashashining birlamchi, asossiy sharti hisoblanadi. Biroq hayotning ma'nosi faqat moddiy ne'matlardan baxramand bo'lish, qorin to'yg'azish, lazzatlanish, boylikka ruju qo'yishdangina iborat emas. Inson ruhi ham o'ziga xos oziqqa ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj insonda ma'rifatparvarlik, odamiylik, adolatlilik, raxm - shavqat, diyonat, vijdon, oliyhimmatlilik, vatanparvarlik kabi ma'naviy fazilatlarining shakllanishiga olib keladi.

Inson tabiati – g'oyat murakkab. Bunda hayvoniy va ilohiy sifatlar mujassamlashgan. Lekin u hayvon ham farishta ham emas. Insoniy ruh ham ma'naviyat uni boshqa mavjudotlardan yuqori darajaga ko'taradi.

Yuksak ma'naviyat insonni ruhan poklaydi. Iymon – e'tiqodini mustahkamlaydi. Yuksak ma'naviyatgina inson ehtiyojlarini oqilona qondirishga, ijtimoiy adolat o'rnatib, sahiy va oliyhimmat bo'lishga undaydi. Yuksak ma'naviyatda haqiqiy insoniy mohiyat mujassamdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, inson o'zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassamlashtirgan. Tabiatdagi noyob ongli mavjudot deyishimiz mumkin.

Inson mohiyatini falsafiy – ma'naviy jihatdan tahlil qilishda shaxs, individ, fuqaro tushunchalarining mohiyatini bilib olish muhim ahamiyatga ega. Shaxs- alohida kishi, ijtimoiy- ahloqiy, manaviy mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan individ. Kishilar shaxs bo'lib tug'ilmaydi, balki jamiyatdagina shaxs bo'lib shakllanadi va rivojlanadi.

Inson ta'lim- tarbiya, mehnat, o'zaro muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, bilim, turli munosabatlar, ahloqiy- ma'naviy me'yorlar siyosiy qarashlarlar ostida faoliyat yuritadi. Ularni o'zlashtiradi va shu jarayonda asta- sekin ijtimoiylashib boradi, ya'ni shaxs bo'lib shakllanadi. Natijada insonda irsiy bo'lmagan yangicha fazilatlar paydo bo'ladi. U yaratuvchan majudot sifatida faoliyat ko'rsatadi.

O'zini- o'zi nazorat qilish, o'z- o'zini tarbiyalash, yuksak ma'naviyatni xis etish, g'oya uchun kurashish mustahkam e'tiqodga ega bo'lish, o'z fikr- mulohazalarini erkin bayon etish va ijtimoiy siyosiy, biologik shaxsga xos belgilardir.

Shaxs mustahkam iymon- e'tiqod, g'oya va insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, vatan, millat tuyg'usi bilan yashaydigan o'zida davr xususiyatlarini ifoda etadigan insondir<sup>1</sup>.

Shaxs biofiziologik, ijtimoiy, ma'naviy- ahloqiy va estetik fazilat xislatlarning yaxlit bir butunlikka aylanishi hamda munosabatlar tizimi bilan qamrab olinishidir, shaxs madaniylashgan jonzo; ijtimoiy, tarixiy tajribaga ega bo'lgan muayyan davr avlodining vakili; insonlararo munosabatlar sub'ekti.

Shaxs mohiyatiga ko'ra, madaniylashgan ong, aql orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan ijtimoiy- tarixiy an'ana turmush tarzi va tajribaga asoslangan muayyan avlodning vakili, Sharqda u yuksak axloqiy- ma'naviy me'yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi. Shu asosda kishilik jamiyatining go'zal va farovon bo'lishini ehtiyoj sezadi.

Shaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak ko'rinishi, oliy maqomidir. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatni mujassam etadi.<sup>2</sup>

Insonning oliyanob fazilatlari yetuk shaxslar timsolida o'z aksini topadi, insonga xos bo'lgan barcha xususiyatlar shaxs faoliyatida, uning jamiyatda tutgan o'rnida, uning o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishida muayyan g'oyalarni amalga oshirishida yaqqol ko'rinadi.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida fozil va barkamol inson shaxsni shakllantirish dolzarb vazifalaran biri bo'lib qoldi. Mamlakatimizda talim – tarbiya sohasida keng ko'lamda amalga oshirilayotgan islohotlar o'z oldiga ana shunday shaxsni tarbiyalab voyaga etkazish va shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan.

Demokratik qadriyatlar tizimida shaxs erkinligi alohida o'rin tutadi. Erkinlik – insonning intellektual- ma'naviy kamolotga erishuvining zarur sharti. Erkinlik tufayli inson yaratuvchanlik qobiliyatini namoyon etadi. Shaxsiy mas'uliyat va insoniy burchni to'la xis etadi. Shaxs erkinligi, avvalo axloqiy, so'z, vijdon, matbuot erkinligida ro'yobga chiqadi.

“Erkinlik” tushunchasi har qanday shaxsga nisbatan emas, balki o'z hatti- harakati, xulq-atvori va faoliyati uchun javobgarlikni xis etadigan ma'naviy jihatdan barkamol insonga nisbatan qo'llanilgandagina o'z mohiyatini to'la namoyon etadi. Erkinlikka kishilar o'zboshimchalik nimani xoxlasa shuni qilish, og'ziga kelganini so'zlash emas deb, balki ma'naviy intellektual rivojlanish imkoniyati deb qarashlari lozim.

---

<sup>1</sup> Qarang: Falsafa. Toshkent. “O'zbekiston”, 2005, 275- bet.

<sup>2</sup> Qarang: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 10- jild Toshkent. “O'z ME”. 2005, 15- bet.

Inson, shaxs tushunchalari bilan birga fuqaro, fuqarolik tushunchalari ham yonma – yon ishlatib kelinadi. “Fuqaro” so’zi “faqir” so’zidan olingan bo’lib, hozirgi davrda uning ma’nosi o’zgarib ketgan.

Fuqarolik tushunchasi antik Yunoniston va Rimda mavjud bo’lsa - da asosan o’rta asrlar oxirida feodalizm inqirozga uchrab, jamiyatdagi siyosiy iqtisodiy va ijtimoiy hayot demokratiya va bozor munosabatlari zaminiga o’ta boshlaganida hozirgi shakl va mazmunda paydo bo’la boshlagan. Ilk bor fransuzchada “qituayyon”, inglizchada “sitezen” – “shaharli”, ruscha gorojanin- grajdanin”, ya’ni qoloq qishloqdan, mustabid feodal munosabatlardan ozod inson, jamiyatning teng huquqli a’zosi, degan ma’noni bildirgan. Mustaqillik e’lon qilingandan so’ng o’zbek tilida o’tmishdagi “grajdanlik” so’zi o’rniga “fuqarolik” degan atama qabul qilindi.<sup>1</sup>

Fuqarolik- jamiyatining demokratik rivojlanishida insoniyat qo’lga kiritgan ulkan yutuqlardan biri. U shaxsning muayyan davlat qarmog’ida bo’lishi shu davlatga, mamlakat ishida ham, uning tashqarisida ham mansublikning huquqiy hujjatlar yordamida tasdiqlanganligini bildiradi. Shaxs fuqarolikka ega bo’lgach, davlat uning hamma huquq, erkinlarini e’tirof etadi, ularning amalga oshishini ta’minlash choralarini ko’radi. O’z navbatida fuqarolar davlat qonunlari va qoidalariga so’zsiz amal qiladilar, o’zlari uchun belgilangan majburiyatlarni bajaradilar.

Shunday qilib, fuqarolik deganda insonning huquqiy yoki siyosiy huquqiy tomondan himoyalaniishi va qonuniy manfaatlarining muayyan davlat ichida vauning tashqarisida himoyalaniishi tushuniladi.

Mustaqillik yillarida Prezidentimiz tomonidan “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” g’oyasi ilgari surildi. Demakki, so’zning boshi maqsadimiz demokratik, fuqarolik jamiyatini qurish va barpo etishdir. Fuqarolik jamiyati insonga iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlashi kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan ko’p partiyalilik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta’minlanadigan hamda o’zini- o’zi boshqarish organlarining mavqei baland bo’lgan. Ijtimoiy tizim bunda mamlakatning har bir fuqarosi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va huquqiy jihatdan o’z ehtiyojlarini jamoat birlashmalari va fondlari, o’zini- o’zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va nodavlat, notijorat tashkilotlar ishida faol ishtirok etib, ular orqali qondiradilar. U jamiyatda fuqarolar davlat faoliyati ustidan jamiyatchilik nazoratini o’rnatadilar, davlatning ko’pgina vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi.

Mamlakatimizda bunday jamiyatni barpo etish barkamol inson shaxsini shakllantirishni talab etadi, chunki fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishni inson omilisiz tasavvur etib bo’lmaydi. Prezidentimiz I. A.Karimov ta’kidlaganidek, hozirgi sharoitda inson omili va mezoni

---

<sup>1</sup> Qarang: Falsafa. T.: “O’zbekiston”, 2005,288 bet.

barcha islohotlarimizning bosh yo'nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradi. Fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va ma'rifat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish orasida uzluksiz ish olib borishdan iborat.<sup>1</sup>

## **1.2. Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash zarurati.**

Bugungi kunda ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sanaladi. U ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchil va qat'iyatlilik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi. Haqiqatdan ham, mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu masalaga katta va uzluksiz e'tibor berib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning har bir nutqi va ma'ruzasi, maqola va asarida yuksak ma'naviyat kelajak poydevori ekanligi qayta- qayta ta'kidlanmoqda. "Zero, deb uqtiradi Islom Karimov, biz jamiyatimiz taraqqiyotini faqatgina iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik bilangina emas, xalqimizning ma'naviy barkamolligi, demokratik va insonparvarlik tamoyillarining kishilar ongida nechog'lik chuqur ildiz otishi bilan baholaymiz"<sup>2</sup>.

Erksevar xalqimiz mustaqillik tufayli o'z yeri, diniga ega bo'ldi; milliy g'ururi, izzat-olbro'si tiklanib, endilikda qadriyatlarimiz ma'naviy merosimizdan bahramand bo'lmoqdamiz. Mustaqillik va ma'naviyat bir- biriga g'oyat bog'liq tushunchalardir. Ma'naviyati yuksak xalqni qul qilish, abadiy iste'dod zulmi ostida saqlash mumkin emas. Unday ma'naviyatning kamol topishi qalblarga singishi uchun mustaqillikni mustahkamlash ham lozim bo'ladi. Qudratli kelajagi buyuk davlat, buyuk ijtimoiy iqtisodiy islohotlar zamirida vujudga keladi. Har bir alohida shaxsning va butun millatning ma'naviy kamolati orqali demokratik huquqiy davlat barpo etadi. Davlatimiz rahbari shuning uchun ham ma'naviyat va ma'rifatga doimo katta e'tibor berib kelmoqda. Shu oqilona siyosat tufayli xalqimiz o'zligini tanib, o'z shajarasini idrok etmoqda. Tarix oldidagi vazifasini anglab olmoqda.

Inson ma'naviyatini yuksaltirmasdan turib, xalqimiz hayoti va turmushi yuksalishida, hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Islohotlarning birinchi bosqichida milliy ma'naviyatni yuksaltirish yo'lidagi ko'zlangan maqsad to'la amalga oshirildi va ikkinchi bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarga zamin hozirlandi. Ijtimoiy hodisalar bilan birga milliy ma'naviyatimiz yuksala bordi. Yurtboshimiz I.A. Karimov "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11jild. T.: "O'zbekiston", 2003, 33-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Kelajakni jasoratli odamlar quradi. "Xalq so'zi" gazetasi. 1997 y, 17 fevral.

yo'lida" asarida ta'kidlaganidek xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilanish va taraqqiy ettirish yo'lida muvaffaqiyatli olg'a siljishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa belgilovchi ahamiyatga egadir..."<sup>1</sup> Haqiqatan faqat ma'naviy erkin va ozod xalq teran va kamol tafakkur tufayli " har sohada katta yutuqlarga erishishi mumkun. Boshqacha aytganda, faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohatlarga tayyor bo'lishi mumkin.<sup>2</sup>

Manaviy tarbiya sohasida ko'zbo'yamachilikka yo'l qo'yish nihoyatda xatarli. Ma'naviyat jamiyat hayotining shunday bir nozik, ahamiyatli shaxsiki, bu borada xo'jako'rsinga ish qilish va siyosiy sohalarda kutilmagan turli inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkin, ayniqsa, bu sohada o'zibo'larchilik va luttivozlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Kishilarda, xususan yoshlarda yangi ma'naviyatning shakllanishi ancha murakkab va mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun keng ko'lamlı, madaniy, tarixiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish uchun kerak bo'ladi. Eski tuzum sharoitida tarkib topgan ma'naviy inqirozga barxam berish, yangicha tafakkurga ega bo'lgan insonni shakllantirish murakkab, muayyan davrni talab qiluvchi, asta- sekin amalga oshadigan jarayon bo'lganligi sabali tarixning burilish davrlarida jamiyat hayotida ma'naviy bog'liq holatlari ham yuzaga kelishi tabiiydir.

Prezident ta'biri bilan aytganda u dunyoda tabiatda ham, jamiyatda ham bo'shliq bo'lmaydi. Qayerdadir bo'shliq paydo bo'ldimi hech shubhasiz, uni kimdir to'ldirishga harakat qiladi.

Mustaqilligimiz biz erishayotgan yutuqlarimizni ko'ra olmaydigan kuchlar o'z maqsadlariga erishish uchun murakkab o'tish davrida ma'naviy hayotimizda yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldirishga shuning hisobidan o'zlarining g'arazli maqsadlarini amalga oshirishga intilib kelmoqdalar. Bunda ular avvalo boy va qadimiy ma'naviyatimizga qarsh kurashib xalqimizni ana shu bebaho, ma'naviy boylikdan judo qilish uchun har xil usul va vositalardan foydalanmoqdalar. Bunday yovuz, g'arazli hatti-harakatlarini ma'naviyatimizga qilingan tahdid va tajovuz deb baholashimiz mumkin. Shunday ekan ma'naviy tahdid va tajovuz nima? Undan kutilgan maqsad va uning salbiy oqibatlari haqida o'zimizda tasavvur hosil qilishimiz lozim.

Bunga esa Prezidentimiz Islom Karimovning keng "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" kitobidan to'liq javob olishimiz mumkin. "Ma'naviy tahdid" deganda avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar har qaysi odamning tom manodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. 1999. 299. 300 betlar.

<sup>2</sup> Qarang: O'sha joyda, 306 bet.

... ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan har qanday xuruj- bu millatimizni millat qiladigan asrlar, ming yillar davomida ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlarga, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usiga, bizni doimiy ravishda tadrijiy taraqqiyotga chorlaydigan, shu yo'ldagi barcha asorat va illatlardan xolos bo'lib, ozod va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradigan mudhish xavf-xatarlarni anglatadi"<sup>1</sup>.

“Bunday mafkuraviy xurujlar esa milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishni, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko'zlaydi. Bizni ko'rolmaydigan g'arazli kuchlarning ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan har qanday tahdidi o'z- o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir- oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin.”<sup>2</sup>

Eng yomoni bunday xurujlarning pirovard oqibati odamni, ayniqsa, yoshlarni o'zi tug'ulib o'sgan yurti va xalqidan tonishga, vatanparvarlik tuyg'ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd bo'lgan shaxsga aylantirishga qaratil- gani bilan xavflidir.

Xalqimiz ma'naviyatiga qilinayotgan tahdid va xurujlarning yo'nalishlari xilma- xildir. Bunda esa ular xalqimizning Islom diniga bo'lgan e'tiqodidan foydalanishga alohida ahamiyat qaratmoqdalar.

Din, xususan, islom dini, deb ta'kidlaydi Prezidentimiz o'z asarida:” . . . xalqimizning ma'naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning Alloh marhamat qilgan bu hayotda to'g'ri yo'l tanlashi, umrning mazmunini anglashi, avvalombor, ruhiy paklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida uning ta'sirini boshqa qech qanday kuch bilan qiyoslab bo'lmaydi...

Shu nuqtai nazardan qaraganda, muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni tarli xil harazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan, himoya qilish, uning asl mohiyatini ezgu g'oyalarini keng targ'ib etish vazifasi hamon dolzarb bo'lib kelmoqda”.<sup>3</sup>

Xalqimiz ma'naviyatining negizini tashkil etuvchi islom dinidan ham g'arazli kuchlar uni buzib talqin etib foydalanishga harakat qilmoqdalar. Bunda ular islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini teng qo'yishdan foydalanmoqdalar. Ular islom dinini niqob qilib olib, manfur ishlarini amalga oshirayotgan mutaassiv kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, go'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bosh- ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanmoqda. Bunday nojo'ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha'niga dog' bo'lib tushadi, oxir oqibat ma'naviy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat, 2008, 13-14- b.

<sup>2</sup> I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat, 2008, 12 bet.

<sup>3</sup> I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T: Ma'naviyat, 2008, 36-37- betlar.

Kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan soʻz jamiyatda paydo boʻlgan gʻoyaviy- maʼnaviy boʻshliqdan foydalanib, chetdan maʼnaviyatimiz uchun mutlaqo yot boʻlgan, maʼnaviy va axloqiy tubanlik illatlarini oʻz ichiga olgan “ommaviy madaniyat” yopirilib kirib kelishi ham maʼnaviyatga qilinayotgan tahdidning yoʻnalishi ekanligini yoddan chiqarmasligimiz lozim. Prezidentimiz taʼkidlaganidek, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzqlik va zoʻravonlik, individualizm gʻoyalarini tarqatish shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning (jumladan, oʻzbek xalqining) necha ming yillik anʼana va qadriyatlari, turmush tarzining maʼnaviy negizlariga bepisandlik, ularni qoʻparishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qoʻymaydi”<sup>1</sup> Ayniqsa, soʻnggi yillarda sanʼatda oshkoralikni pesh qilib, televizor, kino ekranlarida, videotasmalar, matbuot vositalarida boʻlmagur lavhalarni aks ettirish, beʼmanilik va hayosizlikni, baʼzan esa hatto ahloqiy buzqlikni targʻib qilishlar koʻpayib qolganligi oʻzligini anglagan insonni befarq qoldirmaydi. Maʼnaviyatimizga qilinayotgan bunday tajovuzkorona harakatlar xalqimiz uchun mutlaqo begona mafkura va dunyoqarashni avvalo begʻubor yoshlarimizning qalbi va onggiga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir.

Bugungi kunda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl maʼnaviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash “ommaviy madaniyat” namoyondalarining qarashlari boʻlib, u jamiyat taraqqiyotiga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda. Koʻpchilik butun jahonda bamisoli balo- qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga bamisoli balo- qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish, uning oldini olish naqadar muhim ekanini anglab yetmoqda.

Prezidentimiz xalqimizning maʼnaviyatiga qilinayotgan bunday maʼnaviy huruj va tahdidlardan asrash va unga qarshi qanday kurashish kerakligi haqida toʻxtab quyidagi fikrlarni aytgan edi. “Agarki mendan hozirgi kunda maʼnaviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qoʻyish kerak, deb soʻrasa, men avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson oʻzligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulugʻ ajdodlarimizning merosini chuqurroq oʻzlashtirishi, bugungi tez oʻzgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha oʻzgarishga daxldorlik tuygʻusi bilan yashashi zarur, deb javob bergan boʻlardim”<sup>2</sup>.

Yurtboshimiz bu boradigi fikrini davom ettirib, maʼnaviy tahdid va xurujlarga qarshi kurashda, “... fikrga qarshi fikr, gʻoyaga qarshi gʻoya, jaholatga qarshi fikr, gʻoyaga qarshi gʻoya, jaholatga qarshi maʼrifat bilan kurashish har qachongidan

---

<sup>1</sup>I.A. Karimov. Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch. T., Maʼnaviyat, 2008, 17- bet.

<sup>2</sup> I.A. Karimov. Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch. T.: Maʼnaviyat, 2008, 17- bet.

ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda",<sup>1</sup> – deb ta'kidlagan edi:

Hammamizga ma'lumki kishi organizmidagi har qanday kasalliklarning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilanadi: bizlar ham farzandlarimizni ona vatanga muhabbat, boy tariximizga ota- bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, avvalo ularning qalbi va ongiga mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur, toki yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga dunyoning chuqur anglaydigan zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning "da'vati" ham, aql oqibod tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar tahdid qilib ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

Agarki mamlakatimizning har bir fuqarosi, xususan o'sib kelayotgan yosh avlod o'z mustaqil fikriga zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy- milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviyat tahdidlarga, ularning goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berish anchayin qiyin kechadi.

Mustaqilligimizning o'tgan yillari davomida biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va baxtli bo'lib yashashi uchun bor ku va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya, hech shubhasiz muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy tarbiya masalasida xushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir oqibat o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chiqib qolishimiz mumkin.

Yoshlarimizning ma'naviy tarbiyasida beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Yoki aksincha qayerda xushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql- idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.

Mamlakatimiz rahbariyati ma'naviyatning qudratli va yengilmas kuch ekanligini anglab, yoshlarimizning iymon- e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni mustaqil fikrga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash ishiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Zotan mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Shuning uchun ham Yurtboshimiz "Yuksak ma'naviyat – kelajak poydevori", Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kabi shiorlarni yana balandroq ko'tardiki, yuksak ma'naviyat mustaqillikni asrab- avaylash, mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirish uchun muhim va zaruriy tamoyillardan biri bo'lib qoldi.

---

<sup>1</sup> O'sha joyda. 119- bet.

Ma'naviyatli va e'tiqodli kishilar o'z maslagi, Vatani uchun joninni fido qilishga har doim, har daqiqada tayyor bo'ladilar.

O'zbekiston bozor munosabatlariga to'la o'tayotgan davrda ma'naviy – axloqiy qadriyatlarining ahamiyati tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni eng dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'ymoqda. Shu ma'noda Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlari hozirgi davrda har qachongidan ham ko'ra muhim ahamiyat kasb etadi: “Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsada- iymon- e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimiz-ning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat”.<sup>1</sup> Bozor munosabatlarida ham yuksak ma'naviyatli va ahloq- odobli, iqtidorli, bilim saviyasi yuqori va chuqur, zukko, ishbilarmon, ishchan kishilar zarur. Qashshoq ma'naviyat, ma'naviy ahloqiy sust, saviyasi yuzaki va past, ishning ko'zini bilmaydigan kishilar bozor munosabatlarida ko'zlangan maqsad erisholmaydilar. Bundan xulosa shuki hech ikkilanmay va kechiktirmasdan ma'naviy, ma'rifiy tarbiya masalasi haqida o'ylash uni to'g'ri yo'lga solish vazifasi kelib chiqadi. Bunda biz ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning “Tarbiya bizlan uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” degan o'gitga amal qilishimiz kerak.

Oldimizda turgan ezgu maqsadlarimiz – mamlakatimizning buyuk kelajagi ham ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekiston XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham – bularning barcha- barchasi, avvalombor yangi avlod, unib - o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir.

Vatanimiz ertangi kunini, o'z zuriyotlari baxti- istiqbolini istaydigan har bir odam – u kim bo'lishi, qanday lavozim egasi bo'lishidan qat'iy nazar farzandlarimizning ma'naviy, g'oyaviy tarbiya masalasida chetda turmasligi kerak. Bugun bu o'ta muhim masalaga beparvo qarashga, loqayd bo'lishga hech kimning haqqi yo'q.

Endilikda ma'naviy va ma'rifiy tarbiya mustaqil daflatimiz siyosati darajasiga ko'tarildi. Negaki, taraqqiyot taqdirni ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Yurtdoshlarimizning texnikaviy bilimi, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanoti bo'ladi. Butun ma'naviy va ma'rifiy tarbiya ishimizni shu qoidaga asoslanib qurmog'imiz, zamon, mustaqil taraqqiyotimiz, bozor munosabatlari davri talabidir.

Ma'naviy barkamol inson tushunchasi keng qamrovli serqirra tushuncha. Ma'naviy barkamol inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtda ma'naviy barkamol inson

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 25- bet.

tushunchasi sog'lom – avlod tushunchasi bilan ham bog'lanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida - alohida ishlatilsa - da, mohiyatan ularning hammasi inson ahloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy hislatlarni, ularning insonlarga jamiyatga va vatanga bo'lgan munosa- batlaridan tortib, toki oilagacha, ota- onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qarorlarini qamrab oladi. Mustaqillikka erishib, ma'naviyat va ma'rifat masalalariga birinchi darajali ahamiyat berishimiz, mustaqillikni mustahkamlash vazifalari, tarbiya sohasida sog'lom- avlod, ma'naviy barkamol inson, kamol inson kabi tushunchalarga izoh berishni, ularning mohiyatini ochib berishni taqozo etmoqda. Yuqorida aytganimizdek, ular mohiyati birday tushunchalar. Insonni to'g'rilikka, halollikka, vatanparlik va insonparvarlikka, ezgulikka va qo'yingki, yuksak ahloqlikka yo'llash bu tushunchalarning mohiyati va mazmunini tashkil etadi. Hozirgi kunda bu masalalarga birinchi darajali ahamiyat berishimizning boisi- iymoni, e'tiqodi va ahloqiy fazilatleri, qo'yingchi, ma'naviyati kuchli, milliy mas'uliyat tuyg'usi qalbida chuqur ildiz otgan. Ma'naviy barkamol fuqarolarga ega bo'lgan mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi. Buyuk kelajak ma'naviy barkamol insonlarga tayangandagina yaratiladi: qat ko'taradi: boshqacha aytganda ma'naviy barkamol, komil insonlarga buyuk kelajakni yarata oladilar. Shuning uchun ma'naviy barkamol insonni, sog'lom avlodni tarbiyalsash muhim va dolzarb masala. Shu masalada Yurtboshimizning quyidagi so'zi ibratlidir: “Biz sog'lom avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazishimiz kerak, sog'lomkishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sharqona axloq- odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz”.<sup>1</sup>

Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, sharqona odob - axloq va umumbashariy g'oyalarni ongiga singdirib olgan kishi yuksak ma'naviyatli ya'ni ma'naviy barkamol, komil inson hisoblanadi: ma'naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, ruhiyati, xulq- atvor normalari, axloq- odobi bilan bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi. Ma'naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi bilan ajralib turadi. Ma'naviy barkamol insonlar mutelikda, qaramlikda yashashni istamaydilar.

Sog'lom deganda, biz faqatgina jisman baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma'naviy boy avlodni, aqliy rivojlangan, axloqiy pok, ma'rifatli farzandlarni, avlodni tushunmog'imiz kerak. Bunday kishilar o'zlarida xalqimizning eng arloqli fazilatleri – iymon va insof, mehr- oqibat, shavqat va rahmdillik, uyat va andisha, or- nomus, o'zaro hurmat, yuksak vatanparvarlik, insonparvalik, eliga va xalqiga sadoqat kabi qadriyatlarni va g'oyalarni mujassamlashtirgan bo'lishlari lozim.

---

<sup>1</sup> I. A.Karimov. O'zbekistonning siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T. “O'zbekiston”, 1995, 57- bet.

Prezident erkin fuqaro, ozod shaxs, barkamol inson haqida gapirib quyidagi to'rt jihatga e'tiborni qaratdi, ya'ni har bir fuqaro:

- o'z haq- huquqini taniydigan bo'lsin, buning uchun kurashsin;
- o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan bo'lsin, imkoniyatlarini ishga solib, samarasini ko'rsin;
- atrofida sodir bo'layotgan voqea- hodisalarga mustaqil munosabat bildira olsin;
- shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg'un holda ko'rib, faoliyat yuritsin.<sup>1</sup>

Bular barkamol inson fazilatlari haqidagi aniq va to'liq ta'rifdir.

Ma'naviy barkamol inson shon- shuhrat, mansab, moddiy boylik ketidan quvmaydi, moddiy qiyinchiliklarga duch kelganda qaddi bukilmaydi, ba'zan uyushtirilgan tuhmatu fitnalar uning ruhini tushira olmaydi, demak, ular qanday shum taqdir va qismat pokiza, mard, ma'naviy barkamol inson ma'naviyatini buza olmaydi, balki mustahkamlaydi, chiniqtiradi. Yuksak darajadagi ma'naviyatga ega inson – fidoyilik, jasorat, mardlik, o'z xalqini sevish, Vatanni qadrlash, ajdodlaridan faxrlanish kabi olijanob fazilatlari bilan ajralib turadi. Insonning insonligi birinchi navbatda uning ma'naviy – axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Ma'naviy axloqiy barkamollikning asosiy qirralariga yuqorida aytilganlardan kelib chiqib quyidagilarni kiritish mumkin: ota- onasi, mahalla ko'yi, qarindoshlari, xullas butun oila a'zolari, qo'ni- qo'shnilari, qishloqdoshlari va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg'urish, tevarak- atrofdagi insonlar unga kerak bo'lganligi singari, o'zi ham ularga kerakli bo'lishga intilishi, odob- axloqi, fe'l- atvorini yoqimli qilishini insoniy burch deb hisoblash, ota- bobolardan, ajdodlardan yodgor bo'lib qolgan madaniy- ma'naviy merosni qadrlash, milliy qadriyatlarni e'zozlash va ularga sodiq bo'lib qolish, vatanparvarlik tuyg'ularining barqaror bo'lishi; o'zaro muomala – munosabatda o'rnak bo'lishga moyillik, birovning og'irini yengil qilishni odat qilish, umumxalq ma'qullangan va hukumat tomonidan qabul qilingan Konstitutsiyaga hurmat va unga sadoqat namunalarini amalda ko'rsatish; Vatanni himoya qilish, boshqacha aytganda, harbiy vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yashash; diyonat, adolat, mehr- shavfat, ezgulikni himoya qilish: va'daga vafoli bo'lish va boshqalar kiradi.

Ma'naviy – ma'rifiy barkamollikning qirralari va mezonlari qatoriga mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor ham kiradi. Mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor ham kiradi. Mustaqillik tafakkurini har bir kishida shakllantirish nihoyatda zarur. Toki, mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor, g'urur bo'lmas ekan fidokorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi xislatlar jo'sh urmaydi.

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: "O'zbekiston", 2000 y, 232-233 betlar.

Mustaqillik tafakkuri keng qamrovli bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Vatan istiqloli va istiqboli haqida qayg'urish:

- xalqi, yurti qadr-qimmatini, or-nomusini anglash va buni himoya qilish:

- butun mehnati, iste'dodi, imkoniyatini xalq baxti uchun baxshida etish va boshqalar.

Mustaqillik – bu bizga ajdodlarimiz qoldirgan boy va muqaddas ma'naviyatdir. Shu ma'naviyatni har birimiz avaylab – asrashimiz va mustahkamlashimiz davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim vazifa va burchdir. Shu vazifani amalga oshirish va hal qilishda yoshlar va butun xalq onggiga mustaqillik ruhini singdirish katta ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy- ma'rifiy barkamollikning qirralaridan yana biri milliy iftixordir. Milliy g'urur o'z xalqining necha ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma'naviy, boylıkları, tarixiy merosi, urf-odatları, an'analari, odob- axloqi, turmush tarzi, yuksak ma'naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish, avaylab- asrashdir.

O'z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, istiqbol manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan, milliy mansubligini unutgan, o'z millatining istiqboli uchun qayg'urmaydigan, kurashmaydigan kishilarda milliy g'urur ham, millat bilan faxrlanish ham, millatparvarlik ham bo'lmaydi. Bunday kishilarni ma'naviy barkamol inson deya olmaymiz.

Shunday qilib, yuqorida ma'naviy barkamol inson, uning mohiyati va asosiy qirralarining ba'zi jihatlari ustidagina fikr yuritdik. Uning qolgan ba'zi qirralarini navbatdagi mavzularda yoritib boriladi.

## **II BOB. Ma'naviy barkamollikning mezonlari.**

### **2.1. Komil inson va uning sharqona fazilatları.**

Komil inson tushunchasi ma'naviy barkamol inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ma'naviy barkamollikka erishmay komil inson darajasiga yetish mumkin emas. Demak, ma'naviy barkamollikka intilish- bu komil inson darajasiga erishish uchun intilishdir. Komillikka inson butun umri davomida erishib boradi. Uchta tushuncha: sog'lom- avlod, ma'naviy barkamol, komil inson – darajama - daraja chuqur ma'no kasb etadi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, komil inson bo'lishning aniq cheki va chegarasi yo'q. Shu bilan birga ma'naviy – axloqiy komillik darajasini har kim o'zicha belgilay olmaydi. Kimki “Men ma'naviy – axloqiy komilliy cho'qqisiga yetdim desa, o'ziga o'zi yuksak baho bersa, u hali komil inson emas. Inson hech qachon o'zining kamolot darajasiga baho bera olmaydi. Komillik har bir shahsning boshqalar bilan bo'lgan munosabatda ko'zga tashlanadi. Komil insonni ota- ona jamoatchilik, ular bilan munosabat shakllantiradi. Komillikning yo'li odamlardan faqat yaxshi fazilatlarıni o'rganish, ibrat olish, doimo yaxshilikka ezgulikka intilishdir.

Bizning ko'hna tariximizda yuzaga kelgan, xalq, mamlakat tarixida katta ma'naviy – axloqiy tarbiya rolini o'ynagan tasavvuf komil inson nazariyasi, uni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqidagi ta'limot va amaliyot sanaladi. Mazkur masalani tasavvuf ta'limotidan kelib chiqqan holda bayon etishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Komil inson biz uchun idealdir. U barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutloq ruhga tutash, fayzu karomati serob, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo- lim to'la pokiza zot. Komil inson odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislat va fazilatlarni o'zida mujassam etgan insondir.

Komil insonlar jamiyatning tirik vijdanlaridir. Kishilar ularga qarab tortadilar, dunyo behudaligidan o'ziga kelib, o'z qalblari, qilayotgan ishlariga razm soladilar, tavba- tazarru qiladilar. Komil insonlarning af'oli a'moli insonlar diliga quvvat, ko'ziga nur bag'ishlagan.

Komil inson haqida tasavvuf adabiyotida ko'p asarlar bitilgan. Ana shunday asarlardan biri Aziziddin Nasafiyning “Insoni komil” nomli risolasi bo'lib, unda komil insonga shunday ta'rif berilgan: “Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif”. Bu sifatlar bilan yaiynatlangan odam yolg'on, riyo va badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan yashab, ezgu ishlarga tayyor turadi,

Yaxshi ixloqiy sifatlarni egallab borgan odam komil inson martabasiga ko'tarila oladi. Komil inson- insonlarning eng mukammali, eng oqili, donosi. Komil insonlar odamlar jamiyati ichidan yetishib chiqadigan mo'tabar zotdir. Insonlar komillikka axloqiy- ma'naviy poklanish jarayonida erishadilar.

Komillikning belgisi xalq yo'lidan borib, xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o'z so'zi, amaliy ishlari, niyati bilan odamlarga qanchalik foyda keltirsa, yomonlarni to'g'ri yo'lga solsa, haq yo'lida fido bo'lsa, u shuncha komil bo'ladi.

Komil, barkamol insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida musulmon sharqi axloqi tarixida inson hayoti uchun dasturulamal qo'llanma vazifasini o'tagan ko'p pandnomalar, xalq kitobalari yaratilgan. Bu o'rinda Prezidentning quyidagi so'zini eslash o'rinli: “... bizning ulug' ajdodlarimiz o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslashimiz kerak deb bilaman. Ota- bobolarimizning ongi tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan ornomus, uyat va andishaga, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma'no- mazmunini tashkil etadi.”<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, “Ma'naviyat”, 2008, 118 bet.

Komil inson fazilatlarini o'zida ifoda etgan asarlar sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: Kaykavusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Abdirahmon Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Mahbubul-qulub", Husayin Voiz Koshifiyning "Axloqi muhsiniy" va boshqalar. Bu asarlarning ko'pchiligida odil shoh va adolat, halollik va soflik, poklik, to'g'rilik, insonparvarlik, ma'rifatli bo'lish kabi insonning sharqaro fazilatlari belgilangan.

Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarida komil insonga xos xususiyatlar, uning sharqaro fazilatlari sanab o'tilgan. Bular qatoriga ulug' mutaffakkir quyidagilarni kiritadi. tavba, halol luqma bilan qanoatlanish, o'z kasbidan topib kun o'tkazish, shariyatga rioya etish, barchadan o'zini kam deb bilish, hatto farzandlariga qo'pollik qilmaslik, chuchuk tilli bo'lish-yaxshi, muloyim tilli bo'lish, rahmdil, sahiy, mard, halim, xushxulq sabrli, sadoqatli, vafoli bo'lish, rozi- rizolik bilan kun o'tkazish, riyozat chekishdan qo'rqmaslik va boshqalar.

Shu tariqa o'tmishda komil insonning o'ziga xos axloq kodieksi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har bir odamning orzu- armoni deb qaralgan. Komil inson haqidagi g'oyalarkatta ijtimoiy- axloqiy, ma'naviy ahamiyatga ega. U insonni sharafligi, ezgulik va buyuk xayr ruhida tarbiyalash mehru muhabbat, vafo va sadoqatni kuchaytirishga xizmat qilib keldi. Nar zamon va lahzada insonlarga ularning insonligini eslatib, yovuz, qabih ishlar, nojo'ya xatti-harakat va qiliqlardan saqlanishga ko'maklash. Ularda iymon va vijdon binosining paydo bo'lishi va mustahkamlanishini ta'minlab keldi.

Kamol inson iymon va e'tiqodlilik, halollik va poklikning oliy timsoli. Biz hammamiz shunga intilib yashamog'imiz lozim. Mustaqil O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish sharoitida iymonli bo'lish nechog'lik zarur ekanligi hammamizga ayon. Mana shuning uchun ham Prezident ma'naviy barkamol insonni tarbiyasida yoshlarimizni elini, Vatanni sevuvchi komil inson qilib tarbiyalash ishiga alohida ahamiyat beryapti. Quyidagi ta'rifda komil insonning asosiy xususiyatlari har taraflama chuqur va teranlik bilan bayon qilingan: "Komil inson deganda, biz avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq- atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli ma'rifatli kishilarni tushunamiz".<sup>1</sup>

Boshqa ibora bilan aytadigan bo'lsak, Allohning o'zi biz insonlarga buyurgan komil inson bo'lish, halollik, to'g'rilik, poklik va adolat bilan kun kechirish kabi ko'pdan – ko'p olijanob fazilatlarnig ma'no- mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq". 1998. 6 bet.

bo'lish, ularga doimo amal qilib yashash – odamzotning ma'naviy boyligini, komilligini belgilab beradigan asosiy mezon sanaladi.

Uning shakllanganligi darajasini xarakterlovchi eng muhim fazilatlar esa quyidagilardir: aqliy zukkolik, huquqiy komillik, axloqiy yetuklik, siyosiy teranlik, mehnatga halol munosabat, yuksak madaniy, ma'naviy saviya, professional iftixor, milliy va umuminsoniy g'urur va boshqalar.

Yuqoridagilarni hozirgi mustaqil hayotimiz, turmush tarzimiz kishilarning, ayniqsa, yoshlarning intilishlari bilan bog'lab komil inson chizgilariga quyidagi hislat va vazifalar kirishini umumiy tarzida bayon etishimiz mumkin.

Komil insonning umumiy xislatlari: yoqimlilik, ko'rkamlik, jozibadorlik, salobatlilik, hurmatga sazovorlik, shioronalik, ulug'sifatlik, shziga xoslik, yetuklik, jiddiylik, madaniyatlilik, tarbiyalanganlik va boshqalar.

Komil insonning axloqiy xislatlari: Insonparvarlik, do'stlik, g'amxo'rlik, jonkuyarlik, samimiylik, odamiylik, bolajonlik, iymonlilik, fidokorlik, xushmuo- mali, mehmondo'stlik, halollik hazar etish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va hokazolar.

Ishbilarmonlik xislatlari: ishchanlik, tirishqoqlik, serharakatlilik, mas'uli- yatlilik, insofliq, halollik, malakalilik, epchillik, uddaburonlik, saranjom- sarish- talik, tadbirkorlik, aniqlik, tejankorlik, barkamollik, ta'masizlik, tavakkalchilik va boshqalar.

Zukkolik, idroklilik fazilatlarlari: zehqli, ba'mani, xotirjamlik, sog'lom fikrli, donishmandlik, sezgirlik, zakovatlilik, topqirlik, notiqlik, tanqidilik, dalillik, omilkorlik, savodxonlik, qiziquvchanlik, ishqibozlik kabilar.

Sobitlik xislatlari: faollik, qat'iyatlilik, tezkorlik, jo'shqinlik, sabotlilik, bir so'zda turishlik, barqarorlik, botirlik, dovyuraklik, intizomlilik, jiddiylik, nafsni tiyishlik. o'zini yo'qotmaslik, sovuqqonlik, o'ziga talabchanlik, kamsuqumlik, o'zini o'zi idora eta bilish va boshqalar.

Ehtiroslilik xislatlari: ko'tarinkilik, tantanavorlik, kulib turuvchanlik, hazinlik, kelajakka ishonch, ezgulik, kek saqlamaslik, olijanoblik, o'tashinlik, nozik tabiatlilik, hayollilik, hijolatpazlik, iffatlilik va hokazolar.

Ayni shu xislat va fazilatlarni yoshlarimiz ongiga singdira borilishi ularni barkamol, sog'lom va komil inson qilib voyaga yetkazishda ta'lim- tarbiya tizimi va ota- ona tarbiyasining to'g'ri qo'yilishi muhim rol o'ynaydi.

Vatan, millatning kelajak poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni bo'lmish farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq, chunki inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim – tarbiyadan boshlanadi. Buning uchun har qaysi ota- ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo buyuk kelajakni yaratuvchi shaxsni ko'rishi zarur. Ana shunday oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va

keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan, o'zida inson degan ulug' nomga xos fazilatlarni mujassamlashtirgan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim- tarbiya ishimizning, har bir ota va onaning asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim. Bu ishga har bir ota- ona, ustoz va murabbiy nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashishi talab etiladi. Nega deganda, farzandlarimiz xalq mnaviyatining munosib egalaridir.

Mustaqillik ruhida yangicha fikrlaydigan fozil, komil inson, eng avvalo, fuqarolik burchini a'lo darajada his etadigan shaxs bo'lishi darkor.

Sodda qilib aytganda, har qaysi komil inson, har birimiz: “Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi? ” deb emas, balki “Men o'zim Vatanimga, elu yurtimga nima berdim ” deb o'ylashimiz va har dam shu aqida bilan yashashimiz kerak.

“Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasida qayd etiladiki, “erkin fuqarolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu g'oyalar hayotiy e'tiqodi bo'lgan insonlargina bunyod eta oladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda sog'lom avlod harakatining keng tus olishi, kadrlar tayyorlash milliy daqturi asosida ta'lim- tarbiya tizimining tubdan isloh qilinishi ana shu ulug'vor maqsadlarni ko'zda tutadi. Zero, komil insonni tarbiyalash ma'naviyat sohasida olib borilayotgan ishimizning negizini tashkil etadi.

Komil inson tushunchasi o'rta asrlarda ishlab chiqilgan bo'lib musulmon Sharqida, asosan, islomiy nuqtai nazardan ta'riflab kelingan. Aslida “komil inson” tushunchasining dunyoviy mazmuni borligini ham e'tibordan soqit qilish mumkin emas. Uning falsafiy ma'nosi umummilliy ahamiyatga ega va umuminsoniy qadriyat sifatida asrlar davomida sayqal topib rivojlanib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida” asarida sharq falsafasining bir qismi bo'lgan islom sivilizatsiyasining fazilatlarini chuqur tushunishni istamaslik kayfiyatini tanqid qilgan edi. Shu nuqtai nazardan tasavvuf falsafasida komil inson konsepsiyasi alohida diqqatga sazovardir.

“Komil inson” tasavvuf adabiyotida ko'p marta tilga olinib munozaralarga sabab bo'lgan va bu haqda maxsus kitoblar yozilgan. Shulardan Ibn Al- Arabiy, Husayn Voiz Kashifiy, Sayyid Abdulqodir Geloniy, Aziziddin Nasafiylarning rimsolalarini tilga olib o'tish mumkin. Ibn al – Arabiy nazdida komil insonni Oloh ilohiy nurdan yaratgan. Islom ilmining bilimdonlari ko'rsatishicha ilohiy nur barcha mavjudotlardan, hatto yer va osmondan ham avval yaratilgandir.

Arabiyning fikriga qaraganda, tangri taolo ilohiy nurdan aqli avvalni yaratdi va uning suvrati shaklini “komil inson” qiyofasida zuhur etdi. Shu ma'noda, Oloh odamni rahmon suratida yaratdi, degan hadis mavjud.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> N. Komilov. Tasavvuf. I. kitob.T.: “Yozuvchi”, 1996 y,145 bet.

Ibn Arabiyning ta'kidlashiga ko'ra, komil insonning yerdagi tismoli hazrati payg'ambarlarimiz Muhammad Sallolohu alayhi Vassallamdir. Ul zot vujudida aqliy, ruhiy kamolat, dunyoviy va ilohiy bilimlar jamuljam edi. Alisher Navoiyning "Hazratul abror" dan olingan quyidagi baytda Muhammad Alayhissalomning Odam Atodan burun borligi aytilgan: "Ulki, odamdin burun ul bor edi, Ham Nabi, ham sohibi asror edi". Bu hikmat zamirida Olohning odamga bo'lgan buyuk muhabbati yotadi.

Ketma-ketligi jihatidan olam birinchi, odam ikkinchi barpo bo'ldi. Lekin olamni yaratishdan mantiqan maqsad odam edi. Odam –maqsad, olam vosita edi. Buni Aziziddin Nasafiyning "Komil inson" risolasida ham ko'rish mumkin. U aytadiki, "inson olami sig'ir (kichik olam), ilohiy va moddiy olam birgalikda olami kabir" (ulug' olam) dir. Ulug' olamdagi jamiki narsa va xususiyatlar kichik olamda mavjuddir, inson katta olamning kichraytirilgan nusxasidir.

Nasafiy komil insonga ta'rif berib, "komil inson deb shariat va tariqat va haqiqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar", deydi. Boshqacha aytganda, komil inson shundayki, unda to'rt narsa kamolga yetgan bo'ladi: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif.

Demak, olim nazdida, komil inson, birinchidan, real odam, u yaxhi sifatlarni egallash orqali komillashadi. Ikkinchidan, komil inson martabasi tariqat va riyozat yo'li bilan qo'lga kiritiladi. Komil inson xalqqa yaxshilik keltiradi, kishilar mushkilini oson qiladi, olamni esa balo- kulfatlardan saqlaydi. Mavjudot ichra komil insondan ko'ra ulug'roq va donoroq narsa yo'q.

Tasavufda komil inson, bir tomondan, xudo bilan odamlar o'rtasidagi vositachi, ilohiy amr, g'oyibi asrorni oddiy odamlarga yetkazuvchi ulug' zotdir. Ikkinchidan, komil inson istilohi payg'ambardan boshqa zotlarga nisbatan shartli ravishda, hurmat- ehtirom belgisi sifatida qo'llaniladi.

Shu bilan birga, ayrim olimlar komil inson deganda real insonga xos belgilarni nazarda tutishni maslahat beradilar. Masalan, Nasafiy o'zining "Komil inson" asarida uni ruh tushunchasi bilan aloqada olib tekshiradi. Inson martabalari ruh martabalari sifatida qaraladi. Shu ma'noda, komil inson insonlarga xos bo'lgan fazilatni ham ifodalashi mumkin. U insonlarning eng mukammali, eng aqlli va eng donosi, ayni vaqtda Oloh bilan odamlar orasidagi vositachi, Olohning xalifasi. Komil inson insonlar jamiyatidan yetishib chiqadigan mo'tabar zotdir. U azaldan martabasi aniq bo'lgan ruh emas, balki axloqiy ma'naviy poklanish jarayonida hamalga erishgandir.

Ushbu qarashlar, garchi bir- biriga zid bo'lib ko'rinsa- da, aslida o'zaro yaqindir. Bu yerda, eng muhimi, inson kamoloti, buyukligi e'tirof etilishini ko'ramiz. Bunday qarashga binoan, inson va koinot, inson va iloh, inson va mavjudot o'zaro aloqada, bog'lanishdadir. Ahli shariat

tushunchasiga ko'ra, inson kamoloti azal tomonidan ma'lum bo'lib, taqdiri azal tomonidan belgilab qo'yilgan.

Tasavvuf ahli aytdiki, insonga erkin faoliyat uchun inon ixtiyor berilgan, u harakat qilib komillikka erishuvi mumkin. Aziziddin Nasafiy kamolotning ikkinchi belgisi bor, deb ta'kidlaydi: birinchisi, yaxshi axloq, ikkinchisi o'z – o'zini tanish. Komil inson yaxshi axloqli, o'z- o'zini tanigan insondir.

Biz yuqorida komil inson g'oyasi shariat va tasavvuf ilmida qanday qo'yilganligi to'g'risida ba'zi tafsilotlarni bayon etdik. Endi komil inson tushunchasining ilmiy- falsafiy jihatdan tavsiflanishining ba'zi jihatlarini qarab chiqaylik.

I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" asarida ko'p masalalarni tushunishda "dinning yuksak rolini e'tirof etish bilan birga, diniy dunyoqarash tafakkurning, insonning o'zini kabi odamlarga munosabatining yagona usuli bo'lmoqchiligini ham ta'kidlash zarurdir"<sup>1</sup> degan edi. Darhaqiqat, dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham mavjud. U din va diniy turmush tarzi bilan yonma- yon yashab rivojlanib kelgan.

Komil insonni tushuntirishda dunyoviy fikrning asosida nima yotadi? Prezidentimiz uqtirganidek, odam tabiiy omillarga ko'ra, o'zi mansub bo'ladigan irq va elatni tanlay olmaydi. Lekin dunyoqarashini, axloqiy madaniyatini hech kimning tazyiqsiz va ayniqsa, zo'rvonligisiz o'zi tanlib olishi mumkin va lozim. Madomiki, shunday ekan, mamlakatimizda huquqiy demokratik tamoyillarga asoslangan davlat, fuqarolik jamiyati qurish sari borayotgan ekanmiz, qanday dunyoqarashga asoslanishimiz kerak?

Hozirgi zamon odamlari yashayotgan ijtimoiy muhitda asosan ikki yo'nalishdagi – ilmiy-falsafiy va diniy- mistik dunyoqarash mavjudligi o'z- o'zidan ayon. Ularni bir- biriga qarama-qarshi qo'ymagan holda shuni ta'kidlash kerakka, O'zbekistonning asosiy qomusi – Konstitutsiyada dunyoviy davlat qurish nazarda tutilganligi bois bog'cha, maktab, oliy o'quv yurtlari va boshqalarda ta'lim- tarbiya tizimi jarayonida ilmiy- falsafiy dunyoqarash shakllantiriladi.

Yoshlarda dunyoqarash ilmiy- falsafiy yshnalishda bo'lishi, diniy dunyoqarash esa respublikada dunyoviy davlat qurish manfaatlari doirasida rivojlanishi kerak. Chunki ilmiy-falsafiy dunyoqarashda diniy va milliy ekstremizm yo'ligi o'ziga xos to'siq yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan komil inson masalasini ham shu asosga qurish maqsadga muvofiq bo'ladi, shu o'rinda aytish kerakki, bu sohadagi ham nazariy, ham amaliy ish komil inson haqidagi barcha ijobiy fikrlar va qarashlarning eng foydali tomonlaridan, shu jumladan, islom qadriyatlaridan ham foydalanishga asoslanadi.

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida... T. O'zbekiston. 1997. 36- bet.

Ayni paytda aytish lozimki, komil inson to'g'risidagi ilmiy- falsafiy ta'limot o'z mohiyati, ijtimoiy vazifasi va maqsadlari bilan diniy- tasavvufiy qarashlardan farq qiladi.

Komil inson to'g'risidagi nazariya va uslubiyat metodologik jihatdan O'zbekiston Prezidenti asarlarida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunda, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturida va boshqa hujjatlarda har tomonlama ishlab chiqilgan. shularga muvofiq ravishda, ta'lim tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko'tarish, sog'lom, barkamol, ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash eng muhim vazifa ekanligi belgilab berilgan.

Ma'naviyati boy insongina komil inson bo'la oladi. Yuksak axloqiy, madaniy va jismoniy fazilatlar har jihatdan uyg'un bo'lgan. Chuqur va zamonaviy bilimga, keng ilmiy- falsafiy dunyoqarashga ega bo'lgan inson komil bo'ladi.

Yuksak ma'naviy fazilatlar egasi bo'lgan komil inson: nafs xurujini, lazzatlarga bo'lgan moyillik o'jizligini yenga oladigan zotdir; odamni komil inson va mukarram inson martabasiga ko'tarish uning ma'naviyatini yuksaltirish demakdir. Har bir jamiyat tayanadigan ma'naviy qadriyatlar qanchalik umum -insoniy mazmunga ega bo'lsa, u shunchalik umrboqiydir. Odam ham shunday. Odam qanday xulq, axloqiy, madaniy sifatga ega bo'lsa, faoliyat tarzini namoyon etsa, uning qadr- qimmat ham shunchalik yuksak bo'ladi. "Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda, o'zining yuksak ma'naviyati bilan shaxsiga nasbatan e'tibor ham, talab ham kuchayganligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda ma'naviyat sharq falsafasi bilan uzviy bog'liq, zero falsafasi bilan uzviy bog'liq, zero falsafaning o'zi ma'naviyat. I.A.Karimov alohida ta'kidlaganimizdek, "Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyati, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlarini sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlanib keldi".

Ma'naviyat sharqona falsafaga tayanib ta'riflanishi kerak, shunda u O'zbekiston tanlagan yo'ning o'ziga hosligini ifodalaydi. Sharq falsafasi Islom falsafasidan oziq oladi. Islom falsafasi murosasozlik falsafasi ekanligi bilan xarakterlanadi. U odamlarning to'qnashuvi, o'zaro kurash va qon to'kishlar, zo'rlik, kuch ishlatishi qoralanadi.

Odamni kamol toptirish uchun jamiyatni o'zgartirish marksizm mafkurasining tamal toshi edi. Bu tamoyil odamlarni ur- yiqitlarga, o'zaro janjallarga yetakladi. Islomiy falsafa esa jamiyatni o'zgartirish uchun odamning o'zini o'zgartirish kerak deb hisoblaydi. Jamiyat uning a'zolarining kamoloti natijasida va fuqarolarning barkamolligi darajasida takomillashadi deb o'rgatadi. Sharq falsafasida inson omili yuksak rutbada turadi, u o'z xulqining ham, o'zi yashayotgan jamiyat ma'naviyatini ham ijodkori va aynan shu sababli, ham o'zining, ham zamondoshlarining ma'naviy sifatleri uchun javobgardir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ma'naviy omillardan foydalanish vazifasi birinchi o'ringa chiqadi, savdo, tijorat, tadbirkorlikda, mehr, insof, adolat suvday kerak, Qur'oni Karimda “o'lchov va tarozini adolat bilan tortingiz”, deyiladi. Ismoil Buxoriy hadislarida molu-dunyosi ko'p odam emas, balki nafsi to'q odam badavlatdir, savdoda hiyla, aldanchilik qilmoq makruxdir, deb ta'kidlanadi.

Ko'rinib turibdiki, ma'naviyati past odam tubanlik sari ketadi.

Komillikning har bir davrga xos me'zonlari bo'lganligini ham aloxida ta'kidlash kerak, nodonga nisbatan oqil, loqaydga nisbatan sergak, baxlga nisbatan serg'ayrat, qo'rqqoqa nisbatan botirlik kabi xislatlar o'ziga xos o'lchov vazifasini ham o'tagan.

Mamlakatimizda barpo etilmoqda, uning bag'rida shakllanishi lozim bo'lgan komillikning mohiyati, shartlari va nizomlari qanday bo'ladi. Qanday yurtdo- shimizni komil deb ataymiz? Eng aavalo, ota bobolarimizning ibratli hayot yo'li biz uchun namunadir, Binobarin, komillik g'oyasi biz uchun yod narsa emas. Aytish mumkinki, O'zbekiston insoniy komillikning chuqur an'alariga ega bo'lgan o'lka. Tadqiqotchilarning qayd etishlaricha, “bu an'ana turli avlodlar o'oratsida ruhiy yaqinlikni mustahkamlaydi, Yoshlar qalbida vorislik tuyg'usini uyg'otadi. Demak, komillik - eng avvalo insoniylik sharti va buyuk ajdodlarimizga vorislik taqozasi”.<sup>1</sup>

Komillikning bosh mezonini insoniylik hisoblanadi. Insonning noyob fazilatlaridan biri uning komillikka intilishidir. Mehnat, aql, idrok, odob- axloq, odamlarga yaxshilik qilish- insonning oddiy fazilati.

Har bir xalqning o'z yetuk allomalari, komil insoniga musharraf bo'lgan ajdodlari bor. Ularning mehnati, merosi avlodlar ko'ksini g'urur bilan to'ldiradi. Xorazmiy, Forobiy, Farg'oniy, Ibn Sino, Ismoil Buxoriy, Marg'iyoniy, Beruniy, Ulug'bek, Navoiy, Muqimiy va boshqalar inson qadr- qimmatini hamma narsadan ustun qo'yishga harakat qilganlar.

Forobiy insonning yaratuvchanlik qobiliyatiga yuksak baho beradi. U inson biologik mavjudot emas, balki aql- zakovat sohibi ekanligini, o'z mehnati bilan ijtimoiy mohiyat kasb etishini uqtiradi. Yusuf Xos Hojib ham insonga aql berib qo'yilgan, shuning uchun ham yer yuzida har qanday mushkullikni oson yerga oladi, degan fikrni bildiradi. Navoiy dunyoda insonga qaraganda ulug'roq kamolot yo'q deydi: “Menga ne yoru, ne oshiq havasdir. Agar men odam o'lsam ushbu basdir”.

Bordi- yu kamolotning eng yuksak mezonlariga adob va yuksak ma'naviyatni kiritadigan bo'lsak, bunda mukammallikning jihatlari aqlli, axloqiy, madaniy, jismoniy faoliyat bilan bog'liq ekanligini ta'kidlash joizdir, bularning har biri ham o'z navbatida bir qancha sohalarni qamrab oldi. Chunonchi, jismoniy faoliyat kasb – hunar bilan shug'ullanishni o'z ichiga oladi.

---

<sup>1</sup> Q. Yo'ldoshev. Komillikning to'rt jihati. “Tafakkur”, 1994 y. 2 son

Insonni go'zal qiladigan uning hunari, ilmi va odobi deb aytish mumkin. Hunar ham, ilm ham odamni yuksaklikka ko'taradi, unga katta obro' va shuhrat keltiradi. Biroq shaxs yaxshi hunar sohibi bo'lsa-yu, odob va axloq bobida qusurga yo'l qo'ysa, u, shubhasiz, obro' topa olmaydi. Ilm sohibi haqida ham shunday deyish mumkin. Zamondoshlarimizning chuqur ilmiy dunyoqarashga, zamonaviy bilim va muayyan kasb egasi bo'lishi sohasida uyg'unlikka erishishi O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ruhiga singlirib yuborilganining boisi ana shunda.

Inson kamolotida jismoniy go'zallik muhim ahamiyat kasb etadi. Jismonan baquvvat, sog'lom bo'lish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy qadriyatdir. I.A. Karimov tomonidan ishlab iqlilgan va izchillik bilan amalga oshirilayotgan "sog'lom avlod dasturi" ning mazmuni shu bilan belgilanadi. Ayni vaqtda har bir inson o'zining salomatlik madaniyatini ham shakllantirmog'i va mukammallashtirmog'i lozim. "O'zining salomatligi haqida shaxsan g'amxo'rlik qilib borish madaniyatini oila, maktab, mahalla, sog'liqni saqlash tizimi, jismoniy tarbiya va sport vositasida yoshlikdan singdirib borish kerak".<sup>1</sup>

Komillikning yana bir jihati Vatanga, millatga, elu yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir. Vatanni sevmagan, millatning tarixi va taqdiriga loqayd qaraydigan insonning komilligi haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Prezidentimizning "elim deb, yurtim deb, yonib yashash kerak", degan dav'ati negizida ana shunday buyuk g'oya yotadi.

Inson kamolotida oilaning roli beqiyos katta ekanligi ma'lum. "O'zbeklarning aksariyati, deb yozadi I.A.Karimov, - o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh- urug'lari va yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon- esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada qadriyat, inson qalbining gavharidir".<sup>2</sup>

Oila tarbiyasida domiy ta'sirchan kuch oiladagi munosabat, oila muhiti, oila a'zolarining o'zaro aloqasi, ota- ona, aka- uka va boshqalarning xulq- atvori, madaniy va siyosiy saviyasi, muomala madaniyati, oilaning daromadi, yashash sharoiti va boshqa holatlar bola kamolotiga ta'sir qiladigan asosiy omillardir. Oila qanchalik tartibli, yaxshi xulq- atvorli, uning a'zolarining o'zaro munosabatlari samimiy bo'lsa, oila tarbiyasi ham shunalik samarali bo'ladi.

Tarbiyaning an'anaviy va zamonaviy turlari va usullari ko'p, shulardan biri shajaraviy tarbiyadir. Bu tarbiya ususli ma'lum bir ajdoddan kelib chiqqan avlodlarning qarindoshlik darajasini izchillik bilan sanab ko'rsatuvchi hujjatlarga asoslangan bo'lib, bunda bolalarga

---

<sup>1</sup> O'zbekiston. milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T."O'zbekiston", 1993 y. 77 bet.

<sup>2</sup> O'sha joyda, 47 bet.

ajdodlarining kimligi shajaranomalar orqali eslatib boriladi. Bu tarbiya usuli orqali ajdodlar bilan faxrlanish hissi shakllantiriladi, ular munosib bo'lishga da'vat etiladi.

Islomda ham har bir musulmon o'zining yetti pushtini bilishi kerakligi ta'kidlanadi. Shajara tuzish ishini qayta davom ettirayotgan allomalardan biri faylasuf olim Omonulla Fayzullaev deyish mumkin. Tarixiy hujjatlarga asoslanib u kishi Shayx Shahobiddin Abu Umar Suhrayaydiy shajarasini tuzdi. Omonulla Fayzullaev Shayx Zayniddin Boboning 45- avlodi ekanligi ma'lum bo'ldi.

Ma'naviy yetuklikning shartlaridan biri insoniy sifatlarning uyg'unligi masalasidir. Kishining ichki va tashqi dunyosi, sog'lom fikr va oqilona so'zi bilan amaliy faoliyati, tili bilan dili birday bo'lishi yetuklik mezonini va shart - sharoitidir. Bunday uyg'unlikka erishgan odam baxtiyor bo'ladi. Bir hakimdan baxtiyor kim? deb so'radilar. U "uch narsaning uch narsa bilan, ya'ni fikrni to'g'rilik bilan, so'zni rostlik bilan, fe'lni saxovat bilan bezagan kishi baxtiyor", deb javob beradi.

Ulkan yunon faylasufi Suqrot o'z nasihatlaridan birida shunday deydi: Uch narsani barbod qilmaslik uchun uch narsani ehtiyot qiling: boshdan ayrilmaslik uchun tahoratni saqla, yurakdan ayrilmaslik uchun g'azablanishdan ehtiyot bo'l.

Barkamollikning qirralari ko'p ekanligi haqida yuqorida aytib o'tildi. Har bir shaxsni ilk yoshligidan boshlab mantiqiy fikrlashga o'rgatish hayot talabidir. Shunga ko'ra, unga har doim mantiqiy tafakkur yuritish tamoyillarini singdirib borish lozim.

Yoshlarni sog'lom fikrlashga, ayniqsa, mustaqil fikr yuritishga o'rgatish zarur. Ba'zi bolalar yoshligidan boshlab "men" yoki "o'zim" deb fikr yuritadi. Sharqon tarbiyada o'zining gapini, fikrini o'tkazishga intilish yoki manmanlik hamma vaqt ham qo'llab- quvvatlanmaydi. Ko'pincha, kattalar o'z fikrlarini o'tkazishga intiladilar, shunga qaramay mustaqil fikri bor odam odatda "fikrli odam" deyiladi.

Mustaqillik sharoitida to'g'ri ma'nodagi mustaqil fikrlash har bir yoshning qobiliyati, olamga faol munosabatini, malakasini tarkib toptirishda muhim ma'naviy omil ekanligi ta'kidlanadi. Prezidentimiz "Tafakkur" jurnali muharriri bilan qilgan suhbatida quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr- qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan, insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylandi. Shunda odam olomon bo'lib, har lahzada serkaga ehtiyoj sezib emas, aksincha – o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan ongli tarzda, ozod va hur inson bo'lib yashaydi"<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> I. A. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. 21-22- betlar

Fikr tafakkurni keltirib chiqaradi va u o'ylash, muhokama yuritish ma'nolarini bildiradi. Mutafakkir so'zining o'zagi ham "fikr" dir. Lekin har qanday fikrlaydigan kishini mutafakkir deb bo'lmaydi. Bunday fazilatga ega bo'lgan kishi "har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikri- o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi"<sup>1</sup>

Barkamol inson tushunchasiga kiradigan muhim talablar sharq tafakkurida alohida tizimni tashkil qiladi. Ular shaxsning bosiqqligi, vazminligi, bag'ri kengligi, kamtarligi, odamoxunligi, umuminsoniylik ruhining kuchliligi, keksa va yoshlarga mehr- shavqatliligi kabilar bilan xarakterlanadi. Bular sirasiga kishining boshqa e'tiqoddagi yoki dindagi insonlarga nisbatan saba- toqatliligi, hurmati, tabiatni sevish, butun jonli tabiatga muhabbat bilan qarash kabi fazilatlarni ham kiritish mumkin. Respublikamizda istiqolol tufayli shakllanayotgan va toboro kishilar e'tiqodiga aylanayotgan mustaqillik tafakkuri mazmunini tashkil etadigan bunday tushunchalar toboro hayotimizda keng o'rin egallamoqda.

Komil insonni tarkib toptirish tushunchasi yangi insonni insonni tarbiyalash bilan uzviy bog'langan va uning asosiy talablaridan kelib chiqadi. Bunda yoshlarimizda milliy iftixor tuyg'usini tarkib toptirish va chuqurlashtirish ahamiti favqulodda katta ahamiyat kasb etadi. Milliy iftixor tuyg'usini o'z millatning boy tarixi, madaniyati va ma'naviy merosidan, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidan g'ururlanish hissiyotidir. Bu haqda keyingi mavzularni yoritishda batafsil to'xtab o'tamiz.

Prezidentimiz I.A. Karimov asarlarida komil inson tushunchasi va uni tarbiyalashning yo'l- yo'riqlari, mohiyati, tamoyillari alohida ta'kidlab o'tilgan. Uning xalqning o'tmishi va kelajagi, shon- shuhrati haqidagi har bir fikrida komil inson tarbiyasi mutaqillikka erishgan mamlakatimizda davlat siyosatining ustivor sohasi deb e'lon qilingan. Demak, Prezidentimizning so'zlari bilan aytganda "Komil inson deganda" biz avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq- atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz".<sup>2</sup>

## **2.2. Inson kamolotining namoyon bo'lish shakllari**

Mustaqillikning taqdiri, xalqimiz, Vatanimiz kelajagi respublikamizda istiqomat qilayotgan kishilarning, o'sib kelayotgan yosh avlodning tarixiy ma'suliyatini qanchalik chuqur his qila bilishi, otashin vatanparvarligi, mehnatse-varligi, bilimdonligi, ma'naviy kamoloti, axloqan pok va jismonan barkamolligiga ko'p jihatdan bog'liq. Buyuk davlat bo'lish uchun buyuk, oqilu, dono, madaniyatli, ma'rifatli millat va inson bo'lish kerak. "Oldimizda mustaqil buyuk davlat qurishdek murakkab va sharafli vazifa turgan bir paytda, bu ma'naviy qadriyatlarning ahamiyati

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelezak yo'q. T. "Sharq" 1998 y, 6 bet.

<sup>2</sup> I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelezak yo'q. T. "Sharq" 1998 y, 6 -bet.

ming karra ortadi. Nega deganda, har qanday ulug' maqsadlarga yetishish, yangi jamiyat, farovon turmush qurish, inson zotiga munosib go'zal hayot barpo etish, avvalo, shu jamiyat a'zolari bo'lgan komil odamlarga, kelajak barkamol avlodiga bog'liqdir".<sup>1</sup>

Prezidentimizning ana shu so'zlaridan ko'rinib turganidek, har tomonlama kamolotga yetgan insongina yurtim, deb yashaydi, millati, xalqi, mamlakati oldidagi burchi va mas'uliyatini to'la anglab yetadi. Inson kamoloti millat va mamlakat taraqqiyotiga asos bo'ladi, O'zbekiston davlat mustaqilligi barqarorligini ta'minlanishiga sabab bo'ladi.

Insonning hayoti, baxti, erkinligi, qadriyatlarini var har tomonlama kamoloti haqidagi masalalar Sharq va Islom falsafasida azaldan katta o'rin tutib kelayotganligi haqida Islom Karimov Respublika Oliy Majlisining birinchi majlisidagi ma'ro'zasida shunday deydi: "Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir ahloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq Kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida hazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak".<sup>2</sup> Avlod ajdodlarimiz va buyuk mutafakkirlarimizning komil insonni tayyorlash, tarbiyalab voyaga yetkazish borasida necha-necha asrlar mobaynida yaratgan ilmiy- falsafiy ta'limotlari va bu masalada erishgan, qo'lga kiritgan yutuqlari va

to'plagan tajribalarini bilish va hayotga tadbiiq etish hozirgi avlod uchun qanchalik muhim bo'lsa, o'z navbatida, ularni ilg'or mamlakatlarning zamonaviy tajriba va yutuqlari asosida boyitish, ulardan ijodiy foydalanish undan ham ko'ra zarur va ahamiyatliroqdir.

O'zbekistonning porloq kelajagi fan- texnika, madaniyat, ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlar borasidagi yangiliklar va yutuqlarni keng ko'lamda o'rganish, rivojlantirish, hayotga joriy etishga bevosita bog'liqdir.

Insonni inson qiladigan, hayotni go'zallashtiradigan odob- axloq, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatdan tashqari zamonaviy texnika va texnologiyani puxta o'zlashtirib olish, dunyoviy ilmlar va jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan xabardor bo'lish ham juda muhim va zarurdir.

"Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy- ma'naviy salohiyat- ma'rifatli insonning ikki qanotidir".<sup>3</sup>

Islom Karimov asarlarida bayon etilgan nazariy qoidalar- fikr-mulohazalarga asoslanib va suyanib aytadigan bo'lsak, komil insonning asosiy belgilari insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, bilimdonlik, oqilu- donolik, halollik, to'g'rilik, muhabbat va

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent, "O'zbekiston", 1994, 127- bet.

<sup>2</sup> I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3- jild. Toshkent. "O'zbekiston" 1996, 39- bet.

<sup>3</sup> I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3- jild. Toshkent. "O'zbekiston" 1996, 39- bet

sadoqat, kattalarga hurmat va kichiklarga shafqat, ota- onani e'zozlash, ozodalik, tabiatni asrash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash, yurtim va elim deb yashash va faollik ko'rsatish va shunga o'xshashlardan iborat.

Dunyo tajribasining ko'rsatishicha, madaniyatli, ma'naviyatli va yuksak axloqli komil inson, eng avvalo, o'z vatanini sevmog'i, ajdodlari yaratgan bebaho ilmu hunar javohirlarini imkon qadar egallamog'i va shu bilan birga, butun insoniyatga xos qadriyatlardan boxabar bo'lmog'i, ularni asrash va boyitish yo'lida sa'y - harakat qilmog'i lozim.<sup>1</sup>

Ma'naviy kamolatga intilish insoining eng asosiy belgisidir. Ma'naviy kamolot barcha davrlarda ham inson barkamoligining hal qiluvchi, uning barcha insoniy fazilatlarini belgilab beruvchi omillaridan bo'lib hisoblanadi.

Ma'naviy kamolot nima? Ana shu savolga eng mukammal ilmiy jaiobni Prezidentimiz asarlaridan topamiz.

Ma'naviy kamolot deb, biz kishinmng vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, mehr-oqibat, birodarlik, milliy iftixor, xushmuo -malalik, samimiylik, or-nomuslilik, to'g'rilik, baynalmilalchilik, qo'ni-qo'shni lar, xalk, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat ishonch, vijdon, erkinlik kabi axloqiy fazilatlar haqidagi bilimlarni mukammal o'zlashtirishini va ularni o'z shaxsiga singdirishi, iymon - e'tiqodiga, hayotining ma'nosi va mazmuniga aylantirishini tushunamiz;

«O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» nomli asarida ma'naviyat va inson ma'naviy kamolotining ma'nosi juda katta va ko'p qirrali ekanini qayta - qayta ta'kdilab shunday deydi: «Inson uni inson darajasiga ko'taradigan asoslarning asosini o'z aqli bilan tom ma'noda qamray olmaydi. Inson o'zini xalqining bir zarrasi deb "sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi».<sup>2</sup>

Demak, ma'naviy komil inson uchun ko'pgina axloqiy fazilatlar kerak. Avvalo, u halol va mehribon, insonparvarligi tillarda doston bo'lsin, kattalarga hurmat saqlasin, ijtimoiy adolatni yoqlasin, xalqi, Vatani uchun joni - jahonini baxshida etadigan bo'lsin. Ayniqsa, inson birinchi navbatda odamiylik ilmini, insoniylik fanini o'zlashtirishi lozim. U eng avvalo o'zini dunyodagi tirik mavjudotning gultoji ekanligiga munosibmi - yo'qmi ekanligini o'ylashi, tanqidiy muloxaza qilib ko'rishi kerak,

Biz ma'naviy kamolot mohiyati haqida o'ylar ekanmiz, ma'naviy kamolot egasi asosan mustaqil O'zbekiston Respublikasiga, buyuk kelajakka ega bo'lgan

---

<sup>1</sup> Qarang. E. Yusupov. Saodat kaliti. "Tafakkur". 1994. 1- son, 9- bet.

<sup>2</sup> Islom Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura 1- jild, Toshkent, "O'zbekiston", 1996, 81- bet.

O'zbekiston davlatiga munosib bo'lishi kerak, degan xulosaga kelamiz.

Prezidentimizning «O'zbekistonning siyosiy - ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» asarida keltirilgan Hoja Axmad Yassaviyning «Inson ma'naviy kamolotga intilib yashashi lozim, ko'nglida e'tiqodi yo'q odam esa inson nomiga. nomunosibdir» degan ibratli hikmatini yolg'iz diniy ma'noda emas, Vatan va millatga baxtli kelajakka, mamlakat taqdiriga bo'lgan sadoqat va muhabbat tarzida anglash lozim.

Komillikning Prezident asarlarida ta'kidlangan yana bir zarur sharti—axloqiy poklikdir. Masalaga chuqurroq qaraydigan bo'lsak, ma'naviyat va axloqning o'zaro ajralmasligini, biri ikkinchisiz mavjud emasligini, mazmun va mohiyat jihatidan o'zaro tutashligini ko'ramiz. «Aslini olganda,— deydi bu haqda Islom Karimov,— axloq - ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shuncha- ki salom - alik, xush - muomaladangina iborat emas. Axloq—bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, imon, halollik degani».<sup>1</sup>

Odob - axloq insonning ziynatidir. Inson o'zining kiygan kiyimi, mol-dunyosi, mansabi bilan emas, go'zal xulq atvori, kamtarligi, xushuomalaligi, tilining shirinligi, yurish - turishi, o'zini tuta bilishi, el - yurtga nafi tegishi va boshqa xislat va fazilatlariga ko'ra aziz va mukarramdir.

Axloqning mazmuni g'oyat darajada keng va chuqur. Shuning uchun ham uning mohiyatini bi - ikki so'z bilan ochib, ifodalab, ta'riflab - tavsiflab bo'lmaydi.

Qisqacha qilib aytganda, «Axloq - insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur.

Axloq ilmini o'qub, bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanini, janobi haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganini bilur. Bir kishi o'zidan xabardor bo'lmasa, ilmni, ulamoni yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishnlarning qadrini, qimmatini bilmas».<sup>2</sup>

Agar inson yoshlik kezlaridan boshlab yaxshi tarbiya topib, go'zal hulqlarga odatlanib, buzuq hulqlardan saqlanib o'sgan bo'lsa, baxtiyor, osuda hayot kechiradi, o'ziga, oilasiga, jamoasi, millati va Vataniga behad katta naf keltiradi.

Basharti, tarbiyasiz, ahloqi buzuq bo'lib o'sgan, xudodan, jamiyat qonun-qoidalaridan qo'rqmaydigan, shariatga amal qilmaydigan, el-yurt, xesh-aqraba, ota - ona, muallimu ustodlar pandu nasihatini qulog'iga olmaydigan, har qan-day buzuq ishlarni qiladigan, nafsiga erk beradigan, ochko'zlik va pastkashliklardan qaytmaydigan, madaniyat va ma'naviyatdan begona

---

<sup>1</sup> Islom Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – 3 –jild. Toshkent, “O'zbekiston”, 1996, 39- bet.

<sup>2</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. “O'qituvchi” nashriyoti, Toshkent, 1992, 11- bet.

bo'lib shakllangan bo'lsa, bunday kimsalar eng avvalo, otasi bilan onasining, qolaversa, jamiyatning ham sho'ridir. To'g'rilik yo'li qolib, egrilik yo'lini tanlagan, yaxshi hulq, odob-axloq bo'laturib, yomon xulq-atvorni o'ziga munosib deb tanlagan odamlardan o'git, odob - ahloq haqidagi Sharq falsafasidan saboq, maktabu muallimdan to'g'ri yo'l-yo'riq olmagan, aniqrog'i, olishni istamagan kishilar el-yurtida rasvoi olam bo'ladi. Bunday noqobil, nodom va johil kimsalardan el-yurt yuz o'giradi, xazar qiladi,

Sharqona axloqiy qoidalarga, o'zbek xalqining milliy urf - odatlariga ko'ra har bir insonda oqillik va e'tiqodlik, sharm-hayo va or-vomuslik, ziyaklik va farosatlilik, halollik va pokizalik, vazminlik va ulug'vorlik, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ota-onaga mexribonlik kabi ma'naviy - axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo'lishi kerak. Ma'naviy poklik — bu axloqning tamal toshidir.

Qur'oni karim oyat va suralarida, hadisi sharifda, Sharq falsafasida insondagi go'zal va ibratomuz odob-axloqi yuksak darajada e'zozlaydigan qanchadan-qancha yo'l-yo'riqlar, rivoyat va hikoyatlar borki, ularning har biri bugungi kunda ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Ma'nan go'zal, axloqan pok insonlar haqida fikr yuritganda Abu Nasr Forobiy, imom Ismoil Buxoriy, imom at-Termiziy, Hoja Axmad Yassaviy, Maxmud az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiyning ilmiy-falsafiy, diniy meroslariga suyanishimiz lozim, faqat asarlaridangina emas, balki, eng muhimi, ular kechirgan hayot tarzidan namuna ham olishimiz zarur. Buyuk diniy alloma, olim va adiblar yaratgan asarlar, qoldirgan chuqur ma'noli falsafiy talimotlarda ajoyib hikmatlar, beg'araz pandu - nasihatlar mana shularning qammasi hozirgi davrda odob-axloqli kishilarni shakllantirish yo'lidagi muhim yo'l-yo'riqlardir.

Alisher Navoiy ta'limoticha, kamolotga erishgan har bir kishining ahloqi pok, ko'ngli pok, so'zi pok, tili pok, o'zi pok bo'lishi kerak. Tili bilan dili, so'zi bilan ishi bir bo'lmagan insonni u yuksak odob - axloq sohibi, komillikka erishgan odam deb bo'lmaydi, deydi.

Xullasi kalom, odob – axloq bo'lmasa, inson ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanmaydi. Faqat yetuk axloqgina kishilarda hayotning mazmuni va maqsadi to'grisidagi tushunchalarni hosil qiladi, Hayotda inson o'z-o'zini qanday idora qilish me'yorlari va halol ishlab, to'g'ri turmush kechirish mezonlarini belgilashda ahloqiy qoidalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Komil inson xususida Prezident asarlarida alohida e'tibor berib kelinayotgan masalalardan yana biri insonning jismoniy kamoloti haqidagi masaladir.

U o'zining ilmiy asarlari, nutqlari va ma'ruzalarida insonning jismoniy kamoloti, sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish masalasiga, bizning fikrimizcha, tamomila yangicha tarzda, zamonaviy mezonlar asosida yondoshadi. Uning asarlarida gap faqat jismonan baquvvat sog'lom avlod ustida emas, balki ma'naviy, ahloqiy, ilmiy jihatdan ham yetuk, har tomonlama kamol

topgan insonlarni tarbiyalab, voyaga yetkazish haqida boradi- Prezidentimizning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida aytgan quyidagi fikrlari bunga misol bo'ladi: «Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz».<sup>1</sup>

Yurtboshimizning ana shu fikrlarini hech bir ikkilanmay har tomonlama kamol topgan, yetuk sog'lom avlodni tarbiyalash haqidagi yangicha falsafiy qarashlarning ajoyib namunasi, deb bimalol aytish mumkin.

Haqiqatan ham jismoniy barkamollikni insonning madaniy-ma'naviy, ahloqiy, ruhiy kamolotidan ajratib bo'lmaydi. Ular dialektik birlikdadir. Agar inson jismoniy sog'lom, baquvvat bo'lsa-yu, ammo ma'naviy-ahloqiy jihatdan yetuk bo'lmasa, uni hech qachon kamolotga yetgan odam deb bo'lmaydi. Jismonan baquvvat bo'laturib, lekin ma'naviy qashshoq bo'lgan kishilar jamiyat uchun kattagina zarar keltirganliklari haqida anchagina misollarga egamiz. Ko'p hollarda jismonan sog'lom, lekin ma'naviyati zaif bo'lgan yoshlar jinoyat yo'liga o'tib ketayotgani ham hech kimga sir emas. Shunday qilib, jismoniy kamolot har qancha muhim va zarur bo'lmasin, insonning har tomonlama rivojlanishining tarkibiy qismidir, uning bir tomonidir, xolos.

Islom Karimov asarlarida xalqimizning, sog'lom tanda— sog' aql, degan dono o'gitini tez-tez uchratamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, sog'lom aql zaminidagina sog'lom tan ijtimoiy, shaxsiy kamolot omiliga aylana oladi. Shu sababli hamma joyda, bizning fikrimizcha, axloq, odob, ma'-naviyat tarbiyasi jismoniy tarbiyaga, sog'lom avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan ishlarga asos bo'lmog'i lozim. Buni hayotning o'zi ko'rsatib, isbotlab va ayni paytda . talab qilib ham turibdi.

Bu haqda Abu Ali ibn Sino va boshqa fozilu fuzalolarning qanchadan-qancha bebaho fikrlari, yo'l-yo'riqlari bor. «Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdir. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar. Maishatimizni rohatda bo'lmog'i jasadimizning sog'lom bo'lmog'iga bog'liqdur».<sup>2</sup>

Jismoniy tarbiyaning aqliy, axloqiy, madaniy-ma'naviy tarbiya va kamolotga yordami behisobdur. Chunki, insonning jismi va ruhi o'zaro ajralmasdir, Aqliy, axloqiy, ma'naviy kamolot uchun mustaxkam sog'lik, jismonan baquvvatlik ayniqsa zarur. «Fozillar shaxri hokimi

---

<sup>1</sup> Islom Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – 3 –jild. Toshkent, “O'zbekiston”, 1996, 42- bet.

<sup>2</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. 14- bet.

avvalo to'rt muchali sog'- solim bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishida biror a'zosidagi nuqson ha'lal bermasligi

lozim, aksincha, u sog'-salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim».<sup>1</sup>

Shunday qilib, xalqimizga munosib halol, mehnatkash, bilimdon, elimizga sadoqatli, ruhan bardam va jismonan ,baquvvat, har tomonlama barkamol insonlarni tarbiyalab, voyaga yetkazish kelajagi buyuk davlatimizning poydevorini qurish demakdir.

Inson kamolotiga chek chegara yo'q, Hech kim, men komillikning oxiriga yetdim, kamolotning men erishmagan biron-bir bosqichi qolmadi, deya olmaydi. Olam cheksiz - chegarasiz bo'lgani singari komillikka intilish ham benihoyadir.

Kamolotga intilish o'zining ayrim qonuniyatlariga ega.Yuksak maqsadlari sari intilmoq, insoniyatga, el-ulusga, xalqqa eng ko'p foyda yetkazishni asosiy maqsad deb bilib yashash, mehnat qilish, faoliyat ko'rsatish—komillikka intilishning, kamolotga yetganlikning muhim belgisidir. Bu birinchidan. Ikkinchidan, esa, shaxs - kamoloti, inson orzu-niyatlarining ro'yobga chiqishi, yuksak qadriyatlar sohibi sifatida e'zozlanishi hech qachon u mansub bo'lgan ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, siyosiy munosabatlardan tashqarida amalga oshmaydi.

Inson kamolotida tabiiy - biologik omillar singari ijtimoiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy-biologik omillar rolini aslo kamsitmagan, balki e'tirof etgan holda shuni alohida ta'kidlashga to'g'ri keladiki, insonni jamiyat kamol toptiradi va unga qiyofa beradi.

Inson shaxsi rivoji jamiyatda o'tadi. Har qanday inson muayyan ijtimoiy muhitda hayot kechiradi, o'ylaydi, fikr yuritadi, harakat qiladi. U o'z hayoti-ning butun mazmunini jamiyatdan oladi. Jamiyatda inson o'z tuyg'usi va aql-idrokini rivojlantiradi, hayotining maqsad va ma'nosini tushunadi. Har bir inson o'zidan boshqa odamlar bilan aloqada, munosabatda bo'lishi, jamoa orasida va jamiyat ichida yashaganligi tufayli sekin-asta kamolotga erisha bo-radi, o'zini o'rab turgan ijtimoiy muhitni, o'z-o'zini, o'zining insoniy mohiyatini anglay boshlaydi. Odamning o'z - o'zini va milliy o'zligini anglay boshlashi inson barkamolligining muhim belgilaridan biridir.

Jamiyat qanday bo'lsa, inson ham, shaxs ham asosan unga mos bo'ladi. Agar jamiyatda insonning unib - o'sishi, o'qish - o'rganishi, bilim asoslarini o'zlashtirib olishi, kasb-hunar o'rganishi, madaniyatli-ma'rifatli bo'lishi, aqliy va jismoniy, axloqiy, ma'naviy jihatdan ayni bir vaqtda teng kamol topishi uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilgan bo'lmasa hech qachon kamolotga erisha olmaydi. Inson kamoloti uchun mustaqil O'zbekiston Respublikasida yaratilgan va yaratilayotgan tegishli shart - sha-roitlar bunga yaqqol misol bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993, 159- bet.

Islom Karimov asarlariga alohida e'tibor berib qaralsa, ularning har birida mustaqilligimizning barqarorligi, tobora mustahkamlanishi, kuch-qudratga to'la borishi va respublika fuqarolarining ilm-fan asoslarini o'zlashtirishlari, o'ta o'qimishli, ruhan bardam baquvvat, axloqan pok, ma'nan va ruhan yetuk va barkamol bo'lib shakllanishi dialektik birlikda ekanligi haqidagi falsafiy ta'limot mavjudligini ko'rish mum'kin.

Har jihatdan kamolotga erishgan insonlar bizlar uchun faqat orzu- niyat, g'oya emas, balki real voqelikdir. Bunday insonlar o'tmishda ham bexisob bo'lgan, hozir ham bor va bundan keyin ham ko'plab bo'ladi. Insoniyat olamida barkamollikning eng yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan, o'zlarining go'zal xulq-atvorlari, buyuk insoniy fazilatlarini bilan hali - hanuz bashariyatni lol qoldirib kelayotgan mo'tabar zotlar istaganicha topiladi.

Ma'naviy, axloqiy jihatdan kamolotga yetgan inson haqida qayg'urnsh —bu ertangi kun, istiqbol haqida, buyuk kelajak to'grisida g'amxo'rlik qilish va o'ylash demakdir. Bugungi muammolar tashvishi bilan o'ralib qolib, uni hal etish yo'llari ustida o'ylab, bosh qotirib kelajagini; istiqbolini o'ylamagach. istiqbolni oldindan ko'rmagan va ko'ra olmaydigan millat buyuk millat bo'la olmaydi. Millatning buyuk va ulug'vorligi kelajakni oldindan ko'ra bilishidadir.

O'zbek xalqi ijtimoiy taraqqiyotning bugungi tarixiy bosqichida turib, hozirgi erishgan tarixiy yutuqlarga asoslanib olis kelajakni, porloq istiqbolni oldindan nazarda tutib faoliyat ko'rsatmoqda. «Xalqimiz o'zini haqiqatan ham ozod, erkin deb bilib, muhtojlik va qaramlik iskanjalaridan xalos bo'lgan, qaddini rostlagan, erkin nafas olganda iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin.

Ajdodlarimizning ruhiy poklari va urf- odatlari, bizning eng yaxshi an'analarimiz qayta tiklanganda islohotlar muvaffaqiyatga erishadi. O'ta o'qimishli, ruhan bardam va jismonan baquvvat kishilargina istiqbol va taraqqiyot yo'lini bosib o'ta oladi. Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkurlari va muddaolaridan boshlanadigan xalqimizning ma'naviy qadriyatlarini iqtisodiy o'zgartirishlarimizning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi».<sup>1</sup>

Ko'p asrlik tarixiy tajribaning ko'rsatishicha, har qanday davlat va jamiyatning haqiqiy boyligi — bu uning tabiiy zamini, yer osti va yer usti zahiralari, tog'lari va o'rmonlari, daryo - dengizlari, ulkan shaharlari va inshootlari emas, balki inson, inson avlodidir. Inson hamma boylıklar ichida eng ulug'i, bebaxosidir. Inson qadr-qimmatini pul bilan o'lchab, baholab bo'lmaydi- Bu haqda Prezident Islom Karimov faxr bilan shunday deydi-' «O'zbekistonning haqiqiy boyligi va mulki uning mehnatsevar, sahiy va mehmondo'st xalqidir. Jamiyatning eng oliy boyligi bo'lgan xalq abadiy qadriyatlarni, qudratli salohiyatni o'zida jamlagan. Bu

---

<sup>1</sup> I. A.Karimov. Istiqbol va ma'naviyat. Toshkent, "O'zbekiston", 1994, 69- bet.

salohiyatni yuzaga chiqarish jamiyatimizni rivojlantirish va taraqqiy ettirishning juda kuchli omili bo'lib xizmat qiladi. Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u mamlakatning islohotlar va tub o'zgarishlar yo'lidan tinimsiz ilgarilab borishini ta'minlab beradi».<sup>1</sup>

Inson hamma boyliklarning asoschisidir. Ulkan shaharlaru, go'zal inshoot- larni barpo etadigan, yer osti va yer usti boyliklari, ma'danlar, javohirlarni izlab topadigan, ulardan foydalanish yo'llarini belgilab beradigan, suvsiz sahrolarga suv olib chiqadigan, noobod joylarni. obod qiladigan, tabiiy zaminni go'zal va ko'rkam bog' - rog'lar bilan bezaydigan, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratadigan asosiy bunyodkor - insondir, xalqdir.

Ana shu ma'noda olganda, inson har qaysi jamiyat va davlatning qudratli manbaidir. Har qanday ulug' maqsadlarga yetishish, yangi jamiyat qurish, uning ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy madaniy - ma'naviy asoslarini mustahkam- lash, farovon hayot barpo etish — bu avvalo, inson zotiga e'tibor bilan qarashga, jamiyat a'zolari bo'lgan odamlarning madaniy-ma'naviy, axloqiy kamolotlariga bevosita bog'liqdir. Shu boisdan ham hozirgi kunda mustaqil O'zbekistonda xalqimiz, farzandlarimiz istiqbolini o'ylab, ularning mada'niy-ma'naviy, ahloqiy kamolatlari haqida g'amxo'rlik ko'rsatilib kelinayotganligi- ning boisi, mohiyati, zaruriyati o'z-o'zidan ayondir.

Islom Karimov o'zining asarlari, nutqlari, ma'ruzalarida odamlarni ma'naviy poklamasdan va komil insonlar qilib shakllantirmasdan, necha o'n yillar davomida chuqur tomir otgan ma'naviy qoloqlikni bartaraf qilmasdan bozor iqtisodiyotiga o'tishda, kelajak sari odimlashda biron- bir jiddiy muvaffaqiyatga erishib bo'lmasligini qayta-qayta o'qtirib kelmoqda 1996 yil 4-sentyabrda «Ma'naviyat—ma'rifat» respublika jamoatchilik markazi rahbariyati hamda boshqaruvi a'zolari bilan uchrashuvda. so'zlagan nutqida shaxsning ma'naviy kamoloti masalasiga jiddiy e'tibor berish zarurligini quyidagicha ta'kidladi: «Xullas. ma'naviyatda insonning iymoni, e'tiqodi, axloqi, hayotning ma'nosini qanday tushunish, ichki dunyosi namoyon bo'ladi Vatan. xalq oldidagi burchni anglash ham yuksak ma'naviyat belgisidir. Ma'naviyati barkamol inson — o'zining savobli ishlari bilan kechirgan hayotidan rozi ketadi».<sup>2</sup>

Shaxsning ma'naviy axloqiy barkamolligi mazmunan chuqur, qamrovi keng va murakkab tushunchadir. Ularning hammasini birma bir bayon etish oson emas.

Yuksak odob- axloqsiz, madaniyatsiz ma'naviy barkamollik bo'lmaydi. Ma'naviy yetuklik kundalik odob ahloq qoidalariga amal qilishdan boshlanadi va rivojlanib boradi. Kishi ko'ziga

---

<sup>1</sup> Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, "O'zbekiston", 1997, 252- bet.

<sup>2</sup> Yuksak ma'naviyatsiz kelajak yo'q. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1997, 6 sentyabr.

oddiy bo'lib ko'rinadigan hatti harakatlarda ham madaniyat, ma'naviyat, odob axloq o'z ifodasini topadi.

Madaniyatning, ma'naviyatning, ipsoniylikning, odob-axloqning ibtidosi -ham, intihosi ham, avvali-yu, oxiri ham, butun mazmuniyu mohiyati ham salom-alikdan boshlanadi. Haqiqiy insoniylik, odamiylik samimiy tabassum, ochiq chehra va dildan chiqarib salom berishdan boshlanadi. Salomlashish odamlar - qalbi va mehrini o'zaro tutashtiradi. Ko'rinib turganidek, salomlashish, so'rashish, o'zaro iltifot etishda odamga bo'lgan qanchadan-qancha hurmat, izzat, iliq iltifot, mehribonlik, odamshavandalik va insoniy fazilat bor. Odob, axloq, ma'naviyat shular orqali namoyon bo'ladi.

Insoniy munosabatlarni mustahkamlashda salom- alikning ahamiyati qanchalik zo'r ekanligini unutmasligimiz kerak. «Salom hatto sehrli bir narsa, uning sehrli shu darajadagi, afsonalarda aytilishicha, yalmog'iz kampirga duch kelgan bir kishi nima qilarini bilmay shoshib: «Assalomu-alaykum!», —degan ekan. Shunda odamxo'r, menga ham salom beradigan bor ekanda, deb o'ylab: «Gar saloming bo'lmaganda, ikki yamlab bir yutardim!»,—degan emish. Bu afsonaning ma'nosi shuki—salom har qanday odamning, hatto yovuzning ham ko'nglini yumshatadi degan so'z.

Sidqidildan va samimiy salom bergan kishining yuzlaridan tomgan yog'du va ko'zlaridan chaqnagan tabassum nuri alik oluvchining dilini ravshan qilib yuboradi. Xalq maqollarida ham salom-alik odamiylikning oliy belgisi sifatida aks ettirilganining guvohi bo'lamiz: «Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom qil!», «Bir ko'rgan tanish, ikki ko'rgan bilish», «Odamning yuzi oftobdan issiq», «Salom berish qarz, alik olish farz».<sup>1</sup>

Notanish odamlar salomlashish orqali tanishadilar, bir-birlariga hurmatla boqadilar. Salomlashish boisidan bir- birlarining holu- ahvollarini so'raydilar.

Salomlashish har bir odamning insoniy burchi, odob- axloqliligining ko'zguvidir. Payg'ambarimiz Hadislarida aytilgani- dek, “Bir - birlaringiz bilan salomlashib yuringlar. Shunda o'rtalaringda mehr - oqibat uyg'onur”.<sup>2</sup>

“Salom” – Tangrining yerdagi ismlaridan biridir. Bir- birlaring bilan salomlashib eringlar. Zero, mo'min kishi odamlar oldidan o'tib borayotib ularga salom bersa, ular ham alik olishsa, ularga salomni eslatgani uchun bir darajaga ko'p savobga erishadi. Mabodo alik olishmasa, unga bari- bir ulardan yaxshiroq va afzalroq zotlar, ya'ni farishtalar alik olishadi”.

Insoniy munosabatlarning eng muhim belgilaridan hisoblangan salomlashish-ning ham o'ziga xos odob qoidalari mavjud. Bir kishi ikkinchi kishiga salom bersa, darrov alik olib, salom

---

<sup>1</sup> Ma'naviyat darslari. Toshkent, “O'qituvchi”, 1994, 269- 270- betlar.

<sup>2</sup> Ahloq- odobga oid Hadis namunalari. Toshkent, “Fan”, 1990, 34, 100- betlar.

javobini berishi kerak. Boshni egmasdan qo'llarini ko'krakka qo'yib salom berish sharqona ahloqiy qoidadir.

Odobiylik madaniyat, ma'naviyat – inson uchun bebaho, ziynat eng katta boylikdir. Xalqi bilimdon, odob- axloqli, madaniyatli, ma'naviyatli, go'zal fazilatli mamlakatning istiqboli porloq bo'ladi. Ruhan pok, ma'naviy barkamol kishilar odamiylik qadr- qimmatini to'la tushunib yetadilar, rahbarlariga hurmat ko'zi bilan qaraydilar, jamiyatlari bilan faxrlanadilar. Bunday odamlar qaysi mamlakatda ko'p bo'lsa nifoq o'rnini sadoqat, hafad o'rnini havas, berahmlik o'rnini shafqat, qo'pollik o'rnini muloyimlik, ta'na o'rnini qanoat, nopoklik o'rnini halollik egallaydi. Natijada bunday jamiyat va mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, madaniy- ma'naviy yuksalish sodir bo'ladi.

Ma'naviy- axloqiy jihatdan mukammal inson har qanday jamiyat, mamlakat va xalqning mislsiz boyligidir. Ana shunday komil inson o'zidan boshqalarga foydasi tegsa tegadi- yu, inson zotiga jabr- sitam qilmaydi. Takabburlik, kekkayish, manmanlik, dilozorlik, dimog'dorlik undaylar uchun tamomila yot, begonadir.

Ma'naviy barkamol insonlar hech kimga haqorat, nafrat ko'zi bilan qaraymaydi, yolg'on so'zlamaydi, va'dabozlik qilmaydi, xiyonat ko'chasidan o'tmaydi. So'zida sobit turadi, aytgan ishini qiladi, bergan vadasining ustidan chiqadi, subutsizlik qilmaydi, so'z berdimi, albatta bajaradi. Do'stlari tanish- bilishlari, xesh – aqrabolarini dog'da qoldirmaydi. Rostgo'ylik, jiddiylik unday kimsalarning vujud- vujudiga chuqur singib ketgan bo'lidi.

O'zidan kattalarga xurmatli, kichiklarga izzatli, shafqatli va marhamatli bo'lish, inson zotiga mehr- oqibat ko'rsatish, muruvvatini ayamalik, yiqilganlarga suyanchiq bo'lish, dardlilarga darmon bo'lish, muhtojlarga moddiy va ma'naviy madad ko'rsatish, yordam qo'lini uzatish, mehrini undaylardan darig' tutmaslik ma'naviy barkamollik hisoblanadi. Ana shunday xislat va fazilatlarga ega bo'lgan ulug'sifat, chinakam yetuk insonlar va'dasiga vafo qiladi, omonatga hiyonat qilmaydi, birovlar ko'ziga xas tashlamaydi, ig'vo- g'iybat, fisq- fasod, munofiqlikdan o'zini saqlaydi, yaxshini yomondan, dononi ahmoqdan, halolni nopokdan, beozorni dilozordan, bilimlini johildan farqlaydi. Ma'naviy komil insonlar ota- onasining, urug' –ajdodlarining xesh- aqrabolarining, do'st- birodarlarining hurmatini bajo keltiradi, qadr- qimmatini joyiga qo'yadi, o'zini ular oldida burchli deb biladi, ularni rozi qilishga sa'y- xarakat qiladi. Qarindosh- urug'lari bilan bo'lgan do'stona aloqa iplarini hech qachon uzmaydi.

Avlod- ajdodlari, xalqi, millati tarixi, tili, madaniyati, ma'naviyati, milliy urf- odatlari, an'analari va qadriyatlarini chuqur hurmat qilish va e'zozlash – ma'naviy yetuklikning namoyon bo'lish shakllaridan hisoblanadi.

Ma'naviy yetuk va mukammal insonlarni milliy g'urur va iftixor yuksak darajada rivojlangan bo'ladi. Undaylar xalqi, vatani, millati bilan. qo'lga kiritgan erkinligi, milliy istiqloli

va istiqboli bilan, milliy faxr-iftixor deb hisoblangan Prezidenti, davlat ramzlari, - davlat asosiy Qonuni- Konstitutsiyasi, milliy valyutasi bilan cheksiz faxrlanadi. Shunday ulug'sifat odamlar elim, yurtim deb yashaydi.

## XULOSA

O'zbekiston bozor munosabatlariga to'la o'tayotgan davrda ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarining ahamiyati tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni eng dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yimokda. Shu ma'noda Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlari hozirgi davrda har qachongidan ham kura muhim ahamiyat kasb etadi: "Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi - iymon-e'tiqodi butun, irodasi bakuvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. YA'ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxe - komil insonni tarbiyalashdan iborat".<sup>1</sup> Bozor munosabatlarida ham yuksak ma'naviyatli va ahloq-odobli, iqtidorli, bilim saviyasi yuqori va chuqur, zukko, ishbilarmon, ishchan kishilar zarur. Qashshoq ma'naviyat, ma'naviy-ahloqiy suet, bilim saviyasi yuzaki va past, ishning ko'zini bilmaydigan kishilar bozor munosabatlarida ko'zlangan maqsadga erisholmaydilar. Bundan xulosa shuki, hech ikkilanmay va kechiktirmasdan ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalasi haqida o'ylash, uni to'g'ri yo'lga solish vazifasi kelib chiqadi. Bunda biz ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" degan o'gitigi amal qilishimiz kerak.

Xulosa qilib aytish mumkinki:

1. Oldimizda turgan ezgu maqsadlarimiz - mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekiston XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham — bularning barcha barchasi, avvalambor yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir.
2. Vatanimiz ertangi kunini, o'z zuryodlari baxtu istiqbolini istaydigan har bir odam - u kim bo'lishi, qanday lavozim egasi bo'lishidan qat'iy nazar, farzandlarimizning ma'naviy, g'oyaviy tarbiya masalasidan chetda turmasligi kerak. Bugun bu o'ta muhim masalaga beparvo qarashga, loqayd bo'lishga hech kimning haqqi yo'q.
3. Endilikda ma'naviy va ma'rifiy tarbiya mustaqil davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarildi. Negaki, taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi.

---

<sup>1</sup> И.А.Каримов Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. 25-бет.

Yurtdoshlarimizning texnikaviy bilimi, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak.

4. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanoti bo'ladi. Butun ma'naviy va ma'rifiy tarbiya ishimizni shu qoidaga asoslanib qurmog'imiz, zamon, mustaqil taraqqiyotimiz, bozor munosabatlari davri talabidir.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi **tavsiyalarni** beramiz:

**Birinchidan**, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash uchun eng avvalo ma'naviy qashshoqlikni va uning oqibatlarini bartaraf etish lozim.

**Ikkinchidan**, odamlarda yuqori darajadagi did va saviyani tarbiyalash lozim.

**Uchinchidan**, og'zaki va yozma adabiyot, tasviriy san'at, xalq amaliy san'ati, musiqa, kino, teatr, televedeniyaning bu boradagi imkoniyatlaridan foydalanish zarur.

Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash turli omillarga: ta'lim-tarbiya jarayoni, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy muhit va diniy e'tiqod kabilarga bog'liq.

Bu esa ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash uzoq muddatli jarayon ekanligini ko'rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov.I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" T.: Ma'naviyat 2008 y
2. Karimov.I.A. "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" T.: O'zbekiston 1992 y.
3. Karimov.I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. T.: O'zbekiston. 1993 y.
4. Karimov.I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. T.: O'zbekiston 1996 y.
5. Karimov.I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T.: O'zbekiston. 1996 y.
6. Karimov.I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-tom. T.: O'zbekiston. 1996 y.
7. Karimov.I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O'zbekiston. 1997 y.

8. I.A.Karimov.Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. “Muloqot” jurnali 1998 yil 5-son.
9. Barkamol avlod orzusi. T.: Sharq 1999 y.
10. N.Komilov. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. T.: 1996 y.
11. Usmanov M. Yaxshi fazilat insonga ziynat. T., 1992.
12. Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul-Haqoyiq. T.: Kelajak. 1995 y.
13. Komil inson haqida to`rt risola. T.: Ma`naviyat.1997 y.
14. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-Muhabbat. T.: 1976 y.
15. S.Otamurodov va boshqalar. Ma`naviyat asoslari. T.: 2002 y.
16. E.Umarov, M.Abdullayev. Ma`naviyat asoslari. T.: 2005 y.
17. M.Raximov.. Ma`naviyat asoslari. T.: 2008 y.

Қарши Давлат Университети

Тарих факультети

“Миллий ғоя, маънавият асослари ва ҳуқуқий таълим” йўналиши IV курс талабаси

Қаҳҳоров Жамолнинг “Ислом Каримов асарларида маънавий баркамол инсонни тарбиялаш ғояси” мавзусидаги битирув малакавий ишига

### **Тақриз**

4-курс талабаси Қаҳҳоров Жамолнинг битирув малакавий иши ҳозирги кундаги энг долзарб мавзулардан бирига бағишланган. Ўзбекистон мустақилликка эришгандан кейинги йилларда амалга оширилаётган ишлардан бири бу – юксак маънавий баркамол шахсни тарбиялашдир. Бизга маълумки, ўзбек халқи қадимдан юксак маънавиятли шахслари билан дунёга танилган. Ал-Хоразмий, ал-Фаробий, Беруний, Ибн Сино, Имом ал-Бухорий, Имом Термизий, Алишер Навоий каби сиймолари фан, маданият ва ислом оламида ўчмас из қолдирган. Уларнинг буюк хизматларидан ҳозиргача ёшларни маънавий баркамол этиб тарбиялашда самарали фойдаланиб келинмоқда. Ушбу масаланинг ўта муҳимлигини англаган ҳолда муҳтарам Президентимиз Ислом Каримов мустақилликнинг дастлабки кунлариданок халқимиз онгини ва маънавиятини юксалтириш, баркамол авлодни шакллантиришга алоҳида эътибор қаратиб келмоқда.

Қаҳҳоров Жамолнинг малакавий ишининг муҳим томони унда Президентимиз Ислом Каримовнинг маънавий баркамол инсонни тарбиялаш масалаларига бағишланган бир қатор асарлари ҳар томонлама таҳлил этиб берилган.

Битирув малакавий иш талаблар даражасида бажарилган. Камчиликлари ҳақида айтиш мумкинки, илмий адабиётлар рўйхати янада тўлдирилса мақсадга мувофиқ бўларди, имловий хатолар учрайди. Бу камчиликлар жузъий ва битирув малакавий ишни ижобий баҳолаш ва ҳимояга тавсия этиш мумкин.

Такризчи:

доц. Ю.Манзаров

Қарши Давлат Университети

Тарих факультети

“Миллий ғоя, маънавият асослари ва ҳуқуқий таълим” йўналиши IV курс талабаси  
Қаҳҳоров Жамолнинг “Ислом Каримов асарларида маънавий баркамол инсонни тарбиялаш ғояси” мавзусидаги битирув малакавий ишига

Такриз

Қаҳҳоров Жамол ўз олдига “Ислом Каримов асарларида маънавий баркамол инсонни тарбиялаш ғояси” номли битирув малакавий ишни ёзишни мақсад қилиб қўйган. Ушбу мавзу ўта долзарблиги билан ажралиб туради, чунки мустақилликка эришганимиздан сўнг давлатимиз томонидан баркамол авлодни шакллантириш ва тарбиялаш борасида изчил ислохотлар олиб борилмоқда. Зеро, бугунги кунда бу масалаларга жиддий эътибор қаратилишидан асосий мақсад – иймон-эътиқоди, ахлоқий фазилятлари, маънавияти кучли, маънавий масъулият туйғуси қалбида чуқур илдиз отган, маънавий баркамол ёшларга эга мамлакатгина мустақил ва барқарор ривожлана олади. Мавзуни ўрганишда талаба битирув малакавий иш доирасида қўйилган мақсад ва вазифаларни манбалар асосида очиқ беришга ҳаракат қилган.

Қаҳҳоров Жамол ўзининг малакавий ишида мавзуни ўрганишда муҳим маълумотларни тўплаган ва манбалардан унумли фойдаланган. Битирув малакавий ишда жуда кўп қизиқарли маълумотлар мавжуд.

Ҳар бир ишда бўлгани каби ушбу битирув малакавий ишида ҳам айрим техник ва орфографик хатолар учраб туради. Бу ишнинг илмий савиясига умуман таъсир қилмайди.

Иш адабиётлардан унумли фойдаланилган ҳолда ёзилган бўлиб, бакалаврлик илмий даражасини олиш учун етарли даражада таҳлил қилинган деб ҳисоблаймиз. Бу камчиликлар жузъий, умуман ушбу малакавий ишни ижобий баҳолайман.

Такризчи:

доц. Ғ.Соатов.